

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

YANDASHOVA TURSUNOY RUSTAM QIZI

BADIIY MATNDA SIFATLARNING USLUBIY QO‘LLANISHI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar :
Prof. M.Qurbonova

Toshkent – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3 - 7
ASOSIY QISM.....	8 - 70
BIRINCHI BOB. O‘ZBEK TILIDA SIFAT SO‘ZLAR VA ULARNING O‘RGANILISHI.....	8 - 27
1.1. O‘zbek tilshunosligida sifat leksemalarga oid umumiy tadqiqotlar...	8 - 19
1.2. Sifat uslubiyati va uning o‘rganilishi.....	20 - 26
Bob bo‘yicha xulosa.....	27
IKKINCHI BOB. O‘ZBEK TILIDA RANG-TUS VA MAZA- TA‘M BILDIRUVCHI SIFAT LEKSEMALARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI.....	28 - 45
2.1. Badiiy matnda rang –tus sifatlarining uslubiy voqelanishi.....	28 - 37
2.2. Badiiy matnda maza – ta‘m sifatlariga xos konnotativ ma’nolar.....	38 - 43
Bob bo‘yicha xulosa.....	44 - 45
UCHINCHI BOB. SIFATLARNING ICHKI MA‘NO GURUHLARIGA XOS SEMANTIK – USLUBIY XUSUSIYATLAR.....	
3.1. Holat bildiruvchi sifat leksemalar.....	46 - 57
3.2. Ko‘lam me‘yorini ifodalovchi sifat leksemalar.....	58 - 68
Bob bo‘yicha xulosa.....	69 - 70
UMUMIY XULOSA.....	71 - 73
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	74 - 77

Kirish

Inson –Yaratganning eng buyuk mo‘jizasi. Uning buyukligi shundaki, Olloh unga teran fikr, aql –idrok, shuningdek, odob –axloq kabi bebaho boyliklarni in’om etgan. Ular orasida, ayniqsa, so‘zlashish qobiliyati, tillashish –dillashish imkoniyati insonning eng katta baxtidir. Har jabhada kishining mushkullarini oson qilguvchi va yaxshiliklarga yo‘llovchi vosita ham, shubhasiz, tildir.

Til – millat ko‘zgusi, madaniyat beshigi, aloqa –munosabat vositasi. O‘z tili va millatini asray olmagan xalq eng g‘arib, eng qashshoq xalqqa aylanadi. Tilga muhabbat ham insonga ona suti orqali qon – qoniga singiguvchi tilsim tuyg‘udir. Ulug‘ qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov e’tirof etganidek, “Har birimiz bizni voyaga yetkazgan, bizga eng bebaho boyligini –tilini hadya etgan onalar oldida qarzdormiz. Tilimizning sofligi uchun, boyishi uchun jon kuydirsak farzandlik burchimizni ado etgan bo‘lamiz”.¹

Darhaqiqat, dunyoda nimaiki mavjud mo‘jizalar bor, bari – barisi parvarishga, asrab –avaylanishga muhtoj. Bevosita til ham. Bunda eng katta mas’uliyat tilshunoslar zimmasiga yuklanishi, tabiiy. Prezidentimiz Islom Karimov ham aynan shuni nazarda tutib, o‘zlarining “Yuksakma’naviyat –yengilmas kuch” asarlarida quyidagi dono fikrlarni keltirib o‘tganlar: “Biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab–avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank –moliya tizimi kabi o‘ta muhim sohalarda ona tilimizning qo‘llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug‘atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish va milliy o‘zlikni, vatan tuyg‘usini anglashda ezgu maqsadlarga xizmat qilishi, shubhasiz.”²

¹ Aytmatov Chingiz, Shoxonov Muxtor. Cho‘qqida qolgan ovchining oh-u zori. Toshkent -- 2009. 28-bet.

² Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat - 2008. 87-bet.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligining yigirma uchinchi dovonidan mislsiz muvaffaqiyatlar bilan o‘tdi. Bu muvaffaqiyatlarning zalvorli salmog‘i, hech bir istisnosiz, hayotimizning barcha sohalarida -iqtisodiyotda ham, ijtimoiyotda ham, ma‘rifat–u ma‘naviyatda ham tarozi pallasini ro‘yirost bosib turibdi. Ana shunday muvaffaqiyatlarning eng muhtashamlaridan biri, shubhasiz, shuki, xalqimizning aqliy va ruhiy dunyosining oynasi, dunyolarga bermaydigan bebaho boyligi bo‘lgan, ammo asrlar davomida qizil va yana qancha ranglardagi istibdod iskanjasida to‘lg‘onsa –da, badiiyatning betakror bo‘stonini bunyod etmoqqa tuganmas kuch topgan tilimiz–o‘zbek tili o‘zining erkin taraqqiyot o‘zaniga tushib olib, bu oydin yo‘ldan hadiksiz va hormay odimlamoqda. Tilimiz qorong‘i kechadan kunduzga ko‘chdi.

Istiqlol tufayli, uning jasur me‘mori bo‘lmish Yurtboshimiz tufayli o‘zbek tili o‘z nufuzi va obro‘yini tikladi. Ammo xolisanlillo aytish joizki, bunga erishish osonlikcha bo‘lgani yo‘q. Ma‘lumki, o‘zbek tiliga davlat tili maqomini bergan hujjat –“Davlat tili haqida”gi Qonun 1989 –yilda, hali “markaz”ning qattol quyushqonidan chiqish tahlikali bo‘lga bir davrda qabul qilingan. Respublikaning o‘sha davrdagi rahbarlari ikki tilga–o‘zbek va rus tillariga davlat tili maqomini berish g‘oyasini zo‘r berib targ‘ib qilganlar, hatto ana shunday g‘oya asosidagi qonun loyihasi ham e‘lon qilingan. Xayriyatki, 1989–yilning iyun oyida muhtaram Islom Karimov respublikaning birinchi rahbari sifatida ish boshladi. U kishining bevosita tashabbusi va jasorati bilan mazkur ikki tillilik g‘oyasi butunlay barham topdi, o‘zbek tilining qonuniy huquqi qonunlashtirildi. Prezidentimiz alohida ta‘kidlaganlaridek, “Bu Vatanimiz tarixida tom ma‘nodagi buyuk voqea edi”.³ Ayni paytda Prezidentimiz iftixor bilan shunday yozadilar: “1992 –yil 7– dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilanib, mustahkamlab qo‘yildi. Shu tariqa o‘zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida

³ Islom Karimov. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma‘naviyat, 2008, 85-bet.

turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi”⁴.

Bugun O‘zbekistonda Yurtboshimiz rahnamoligida benihoya xolis va odil til siyosati shakllangan, bu siyosatni hayotga joriy qilish borasida ishlab chiqilgan aniq chora -tadbirlar muntazam amalga oshirilmoqda. Qisqa vaqt ichida o‘zbek alifbosi va imlosi isloh qilindi, o‘zbek tilini ilmiy tadqiq qilish va o‘qitish ishlari mustaqillik davri talablariga javob beradigan darajaga keltirildi. Endilikda mana shu tarixiy o‘zgarishlarni, bu boradagi yutuq va tajribalarni umumlashtirmoq hamda galdagi ustuvor vazifalarni bajarmoqqa yeng shimarib kirishmoq, jadal harakat qilmoq lozimdir.

Jahondagi rang–barang tillar dunyosining tirikchilik tarixi shuni ko‘rsatadiki, tilning taraqqiyoti barcha davrlarda siyosiy tuzumning milliy tilga qanday munosabatda bo‘lishiga bog‘liq bo‘lgan. Bordi –yu, tilga davlatning munosabati ijobiy bo‘lsa, tilning rivoji tezlashgan, u boyib borgan, bordi –yu, davlat tilga nopisand munosabatda bo‘lsa, til rivoji sekinlashgan yoki deyarli to‘xtagan, muloqot va hissiyot quroli sifatidagi vazifasi barham topgan, hatto o‘lik tilga aylangan.

Til odamga tabiat in‘om qilgan bebaho ne‘mat, uni maxluqot to‘dasidan insoniyat rutbasidagi oliy sinf o‘laroq ayirgan qudratdir. Bu oliy sinfnings aql va ko‘ngil mulki ayni shu tilga ko‘ra munavvardir. Bashariyatning necha ming yilliklar mobaynida to‘plangan butun aqliy va hissiy tajribalari ayni shu tilga ko‘ra salomat saqlanib keladi. Til faqatgina muloqot quroli emas, u inson ma‘naviy –ruhiy dunyosining bekir va betakror tirgagidir. Shuning uchun ham tilsiz muhabbat, sadoqat, e‘tiqod kabi bir qator cho‘ng tushunchalar tirgaksiz qoladi, shuning uchun ham tilga muhabbatsiz Vatan, el muhabbati muallaqlashadi. Buni ulug‘ bobokalonimiz Alisher Navoiy ko‘p va xo‘p ta’kidlagan, uning “Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz” degan hikmatli so‘zi ayni shu fikrlarning qaymog‘idir. Fransuz

⁴ Islom Karimov. Ko‘rsatilgan asar. 85 – bet.

olimi M.Bellin 1861-yilda yozgan bir kitobida shunday yozgan: “Alisher Navoiy o‘z milliy tilining afzaliyatlarini inkor etib bo‘lmaydigan dalillar bilan isbot etganligi –o‘z xalqi orasida vatanparvarlikni boshlab berganligidan dalolatdir”.⁵ Alisher Navoiyning teran tafakkuri va bepoyon badiiy taxayyuli mahsuli bo‘lmish benazir so‘z durdonalari tilimizning butun salohiyatini namoyon etuvchi ulkan qomusdir. Shuning uchun ham, Prezidentimiz aytganlaridek, “Ona tiliga muhabbat, uni ulug‘lash, beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ong–tafakkurimizga, yuragimizga, avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib kelgan”.⁶ Ayni paytda biz Navoiyning izdoshlari sifatida o‘z tilimizga chuqur hurmat va muhabbat bilan yondashishimiz, uni yot unsurlardan, har xil begona illatlardan asrab–avaylamog‘imiz darkor bo‘ladi. Buning uchun esa, o‘z tilimizni har tomonlama mukammal bilmog‘imiz va uning kamol topishi uchun o‘z hissamizni qo‘shmog‘imiz darkor. Ushbu bitiruv malakaviy ishi ham tilimiz taraqqiyotiga, ayniqsa, morfologik uslubshunoslik sohasiga qaysidir ma’noda juda kichik hissa bo‘lib qo‘shilajagiga umid bildiramiz.

Mavzuning dolzarbligi. Uslubshunoslik o‘zbek tilshunosligi tarixida o‘zining keng qamrovliligi, tematik rang–barangligi bilan boshqa til bo‘limlaridan ajralib turadi. Bevosita mavzumizga daxldor bo‘lgan morfologik uslubshunoslik esa juda ko‘p ochilmagan qirralari bilan hali–hamon tilshunoslarni o‘ziga jalb etmoqda. Xususan, o‘zbek tilida sifat uslubiyati va unga doir tadqiqotlarning kamyoblighi, bu turkum so‘zlarning badiiy matn lingvopoetik xususiyatlariga daxldorligi ishning dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishiga tayanch obyekt sifatida sifat –leksemalar, ularning semantik ma’no guruhlari, uslubiy ma’no tovlanishlari asos qilib olindi. Tilimizning boyishi va takomillashishiga xizmat qilayotgan turli xil badiiy matnlar ushbu tadqiqot ishiga asosiy predmet vazifasini o‘taydi.

⁵ Pirimqul Qodirov. Til va el. Toshkent: Ma’naviyat, 2010. 3 – bet.

⁶ Islom Karimov. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10 – t. Toshkent: O‘zbekiston, 2002. 20 – bet.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi-o‘zbek tilida sifat leksemalarning turli xil konnotativ, okkazional va uslubiy ma’no xususiyatlarini badiiy matnlar misolida aniq va yorqinroq ochib berish. Ayni shu maqsad doirasida esa quyidagi vazifalarni amalga oshirish dolzarb sanaladi:

- o‘zbek tilida sifatlarning o‘rganilish tarixi, ularning leksik–semantik guruhlari haqida to‘liqroq ma’lumot berish;

- sifat leksemalarining uslubiy xususiyatlari va ular to‘g‘risida olib borilgan tadqiqotlarni yoritish;

- badiiy matnda rang–tus sifatlarning okkazional ma’nolari xususida ma’lumotlar berish;

- ko‘lam –me’yor sifatlarning badiiy ijoddagi uslubiy ma’nolarini o‘rganish;

- sifat leksemalarning uslubiy ma’no qirralarini badiiy matndan olingan misollar vositasida asoslash.

Tadqiqotning metodologik asosi. Tadqiqotda distributiv va qiyosiy tahlil metodlaridan keng foydalanildi.

Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon, Erkin Vohidov, Guljamol Asqarova kabi shoir va shoiralar, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Cho‘lpon kabi yozuvchilar ijodidan namunalar olindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Bitiruv malakaviy ishida sifatlarning konnotativ, okkazional ma’nolari va uslubiy xususiyatlari haqida ko‘pgina yangi fikrlar bildirilgan, o‘rganilgan o‘zga manbalarga mustaqil yondashuv mavjud, sifat leksemalarning uslubiy jihatlari badiiy matn orqali tahlil qilinishi badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganishda ham ahamiyatli hisoblanadi.

Tadqiqotning tarkibi: Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy qism: uch bob, olti fasl; umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topdi. Tadqiqotning hajmi esa 16399 ta so‘z va 77 betdan iborat.

I BOB. O‘ZBEK TILIDA SIFAT SO‘ZLAR VA ULARNING O‘RGANILISHI

1.1. O‘zbek tilshunosligida sifat leksemalarga oid umumiy tadqiqotlar

Tilshunoslikda sifat turkumiga oid so‘zlarning o‘rganilish tarixi juda qadim davrlarga borib taqaladi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devon –u lug‘atit turk”, Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat–ul adab”, “Asos-ul balog‘a”, Alisher Navoiyning “Muhokamat –ul lug‘atayn” kabi asarlaridayoq sifatlarning belgi ifodalash xususiyati, ularning turli xil tashbehlar va badiiy san‘atlarni yuzaga keltirishdagi imkoniyatlari haqida muayyan fikr–mulohazalar mavjud edi.

Turkiyshunoslikda ham sifat turkumiga oid so‘zlarning o‘rganilishi o‘ziga xos tarixga ega. N.K.Dmitriyev, A.P.Yakubinskiy, L.N.Xaritonov, N.F.Katanov, P.M.Melioranskiy, M.A.Kazembek, A.N.Kononov, A.M. Shcherbak, S.N. Ivanov, P.I.Kuznetsov, T.I.Grunin singari turkolog olimlar sifatlarning o‘ziga xos grammatik kategoriyalarga ega ekanligi, yasaliş va otlashish xususiyati, gap tarkibidagi sintaktik vazifasi haqida muhim fikr–mulohazalarni bildirganlar.

O‘tgan asrning 20–yillarida o‘zbek tili masalalariga bag‘ishlangan M.M.Faxriddinovning “Turkcha qoida” (1913), Elbekning “Bitik yo‘llari” (1919), “Yozuv yo‘llari” (1921), Shorasul Zunnunning “O‘zbekcha qoidalar” (1925), Munavvar Qori, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnunning “O‘zbekcha til saboqligi” (1925), Y.D. Polivanovning “Краткая грамматика узбекского языка” (1926) kabi bir qator darslik va qo‘llanmalari nashr etilgan bo‘lib, ularda boshqa so‘z turkumlari qatori sifat turkumiga oid so‘zlarning grammatik belgilari haqida ham salmoqli fikrlar bildirilgan edi.

Birinchi o‘zbek professori, ham tilshunos, ham adabiyotshunos, davlat arbobi, shoir, yozuvchi, dramaturg kabi yuzlab talant qirralariga ega ijodkor–Abdurauf Fitratning ham o‘zbek tilshunosligiga, xususan, morfologiyaga oid qarashlari qimmatli ahamiyatga ega. Fitrat birinchilardan bo‘lib o‘zbek tili grammatikasini yaratishga kirishgan olim edi. Uning “Sarf” (1925–1930) asarida

o'zbek tili morfologiyasi, jumladan, sifat so'z turkumi haqida bahs yuritiladi. Bu asarda sifatlar dastlab tub va yasamalik darajasiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi, sifatlarning yasalishi va bir qancha sifat yasovchi qo'shimchalar haqida ma'lumot beriladi. Fitrat, asosan, quyidagi sifat yasovchi qo'shimchalarni ta'kidlab ko'rsatadi: *-li (bilimli), -gi (qishgi), -imtil (sarg'imtil), -ish (sarg'ish), -iy (tarixiy), -ma (yozma), -roq (yaxshiroq), -g'on (bilag'on), -g'in (ozg'in), -(a)r (oqar suv)-gan, kan, -qan (o'qigan yigit), -lik (o'qurlik kitob)* va shu kabilar. Ko'rinadiki, Fitrat sifat yasalishi doirasini o'sha vaqtda juda keng tushungan, ya'ni uning tarkibiga bevosita sifat yasalishi (*-li, -ma, -iy* kabi) bilan birga, sifat darajalari, ozaytirma sifat shakllari, sifatdosh shakllarini ham kiritgan.⁷

Fitrat sifat va son so'z turkumlarini bir –biridan ajratmasdan, yaxlit holda o'rganish tarafdori edi. Buni olimning son turkumiga bergan quyidagi ta'rifidan ham sezish mumkin: “Sonlar bir narsaning, bir kishining (qandayligini emas), nechalgini–qanchalgini ko'rsatsalar ham, so'zlararo turishlari sifatdan ayirmasizdir. Shuning uchun ularni ham sifatlardan sanamoq mumkindir.”⁸

Sifat va son so'z turkumidagi umumiylik ularning gapdagi bajargan sintaktik vazifasi va birikma hosil qilishda tutgan o'rnini bilan aloqador. Sifat ham son kabi gapda ko'pincha aniqlovchi vazifasini bajaradi, ot turkumiga oid so'zlardan oldin kelib, unga tobe bo'ladi. Fitrat sifatlarning “so'zlararo turishlari” deganda ularning ana shunday gapdagi vazifasi va o'rnini nazarda tutgan bo'lishi mumkin. Lekin o'sha 20–yillardayoq sifat va sonlarni yaxlit o'rganish, ulardan umumiy belgilar qidirishga intilish keskin tanqidga uchragan edi. Masalan, Nazir Hakim “O'zbek tili sarfi to'g'risida” (1925) nomli maqolasida quyidagilarni ta'kidlagan edi: “Son bilan sifatni taqqoslash xato. Chunki sondagi turlar (miqdor, sara, bo'lim, chama, oshirma) va sifatdagi darajalar (tenglashtirish, orttirish, ozayish sifatlari) son tarkibida uchramaydi.”⁹

⁷ Qurbonova M. Fitrat – tilshunos. – Toshkent: “Universitet” nashriyoti, 1996. 32-bet.

⁸ Ko'rsatilgan asar. 8-12 – bet.

⁹ Fitrat A. O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. Sarf, 1- kitob. Toshkent – Samarqand: 1930. – 56-bet.

O'zbek tilshunosligida sifat so'z turkumiga oid ilk ilmiy tadqiqot 40–yillarning ikkinchi yarmida vujudga kelgan edi. Z.Ma'rufov 1947 –yilda Sankt–Peterburgda “O'zbek tili sifat darajalari”, 1950 – yilga kelib G'.Abdurahmonov Samarqandda “Hozirgi o'zbek tilida sifatlarning substantivatsiyasi (otlashishi)”, 1955 – yilda O.Madrahimov “Hozirgi o'zbek tilida yangi yasalgan sifatlar” mavzuidagi nomzodlik ishlari himoya qilingan edi. 1957–yilda O.Madrahimovning “O'zbek tilida sifat va yangi yasalgan sifatlar masalasiga doir” nomli maqolasi e'lon qilingan edi.¹⁰

“Hozirgi zamon o'zbek tili” (1957) nomli tadqiqotda “Sifat” mavzusi yirik tilshunos olim Z. Ma'rufov qalamiga mansub. Bu ishda sifatlarning ma'nolari va grammatik xususiyatlari tahlili asliy va nisbiy sifatlarni bir –biridan farqlashdan boshlanadi. Z.Ma'rufov talqiniga ko'ra “asliy sifatlar ezgi a'zolari bilan bevosita bilib bo'ladigan predmetga xos belgini: predmetning rang–tusini, inson va jonivorlarning fizik xususiyatlarini va xarakterini bildiradi”.¹¹ Nisbiy sifatlar esa predmetdagi belgini uning boshqa biror predmetga bo'lgan turlicha munosabatiga ko'ra bildiradi.¹² Ishda sifatlarning ma'no turlari, yasallish xususiyatlari, sintaktik vazifasi haqida ham asosli fikr–mulohazalar berilgan.

60–yillarga kelib o'zbek tilshunosligida sifat turkumiga oid so'zlarni o'rganishga tilshunos olim M.Sodiqova katta hissa qo'shdi. Olima 1963–yilda “O'zbek tilida rang–tus bildiruvchi sifatlar” mavzuida nomzodlik ishini himoya qildi. Ikki tomlik “Hozirgi o'zbek adabiy tili” (1966) va “O'zbek tili grammatikasi” (1975) nomli tadqiqotlarning “Sifat” mavzularini yozdi, 1974–yilda olimaning “Hozirgi o'zbek tilida sifat” nomli monografiyasi e'lon qilindi. Masalan, M.Sodiqova 1966–yilda e'lon qilingan “Hozirgi o'zbek adabiy tili” asarida sifatning ma'no jihatdan olti turini alohida–alohida ajratib ko'rsatgan edi:

¹⁰ Madrahimov O. O'zbek tilida sifat va yangi yasalgan sifatlar masalasiga doir// O'zFA Axboroti, ijtimoiy fanlar seriyasi, Toshkent, 1957. 41 – 47 – betlar.

¹¹ Ma'rufov Z. Sifat // Hozirgi zamon o'zbek tili (leksikologiya, fonetika, grafika va orfografiya, morfologiya), Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1957, 343 – 357 – betlar.

¹² Ko'rsatilgan asar. 343 – 357 - betlar

- a) rang – tus bildiruvchi sifatlar: *oq, qora, qizil*;
- b) hajm bildiruvchi sifatlar: *keng, tor, uzun*;
- v) shakl bildiruvchi sifatlar: *dumaloq, yassi, qiyshiq*;
- g) maza bildiruvchi sifatlar: *achchiq, chuchuk, shirin*;
- d) xarakter va xususiyat bildiruvchi sifatlar: *yaxshi, yomon, a'lo, ablah, urishqoq, tirishqoq*;
- e) holat bildiruvchi sifatlar: *kasal, musofir, boy, kambag'al, yosh, qari, kal, kar, pes* va boshqalar.¹³

Olima o'zining keyingi tadqiqotlarida sifatlarning ma'no turlarini yanada kengaytirib, ularning sonini 8–9 taga yetkazgan. Agar M.Sodiqovanning 1974–yilgi monografiyasida sifatlarning ma'no turlari to'qqiztaga yetkazilgan bo'lsa, “O'zbek tili grammatikasi” (1–tom, 1975) da bu haqdagi fikrlari yanada aniqlashtirilgan va kengaytirilgan.

O'tgan asrning 70–90–yillarida o'zbek tilshunosligida sifat turkumini talqin etish yanada chuqurlashdi va ilmiy tus oldi. Jumladan, keyingi o'ttiz-o'ttiz besh yil davomida o'zbek tilshunosligida tilning grammatik qurilishini, lug'aviy tarkibini o'rganish sohasida sezilarli yutuqlar qo'lga kiritildi. Bunday yutuqlar bevosita sifat so'z turkumini o'rganish sohasiga ham aloqadordir. Masalan, M.Xoliyorov “Ot negizlaridan so'z yasovchi affikslar haqida” nomli maqolasida *-chi, -dosh, -kash, -kor* singari ot yasovchi qo'shimchalarning xususiyatlarini kengroq tahlil etib, quyidagi xulosani bayon etadi:

“Demak, “shaxs oti yasovchi” deb yuritiladigan affikslar yordamida yasalgan so'zlar otlarga (shaxs otlariga) emas, sifatlarga xos ma'no va grammatik xususiyatlarga ega. Chunki bu tipdagi affikslar, asosan, otlarga (otlashgan boshqa so'zlarga ham) qo'shiladi va otdan ot emas, otdan sifat yasaydi. Shuning uchun,

¹³ Sodiqova M. Sifat // O'zbek tili grammatikasi, ikki tomlik, 1-tom. –Toshkent: Fan, 1976, 301-bet.

bizningcha, ot negizlariga qo‘shilib, yangi ma’noli so‘z yasovchi *-chi, -dosh, -kash, -kor* tipidagi affikslarni sifat yasovchilar, ular yordamida yasalgan so‘zlarni esa yasama sifatlar deb atash lozim bo‘ladi. *Ishchi, kolxozchi, paxtakor* kabi yasama sifatlarning kontekstdan tashqarida ham ot kabi tushunilishini esa substantivatsiya hodisasi deb qarash kerak”.¹⁴

G. Sodiqova *achchiq, harir, qattiq, silliq, shirin* kabi sifat leksemalarni “sezgi ifodalovchi sifat sememalari” nomi ostida o‘rganib, ularning komponent tarkibini belgilashga harakat qildi.¹⁵

U.Tursunov, J.Muxtorovlar tomonidan yaratilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (birinchi nashri,1965; ikkinchi nashri 1975; uchinchi nashri 1992) asarida sifatning ma’nosi va grammatik belgilari talqiniga keng o‘rin berilgan. Bu ishda uning oldingi nashrida bo‘lganidek, sifatlarning otga ko‘chishi va otlashuvi (substantivatsiyasi) hodisalarini bir–biridan farqlashga harakat qilinadi. “Sifatning otga ko‘chishi va otlashuvi, boshqa–boshqa hodisalardir. Bir turkumdagi so‘zning boshqa turkumga ko‘chishi deganda til taraqqiyoti natijasida bir turkumdan ikkinchi turkumga o‘tgan so‘z nazarda tutiladi. Bunda mazkur so‘zning grammatik mohiyati, qisman ma’nosi o‘zgaradi. Sifatlarning otga ko‘chishi ham shunday hodisadir. Masalan, *qiz, o‘g‘il, erkak, ayol, kasal, chol, kampir* kabi so‘zlar asli sifat bo‘lib, keyinchalik otga aylangan. Bunday so‘zlarning otga ko‘chganini yoki ko‘chayotganini ko‘rsatuvchi belgi ularning sifat bilan ifodalangan aniqlovchi olishida ko‘rinadi: *Yosh yigit, qari chol, chiroyli ayol* kabi.

Sifatning (yoki boshqa biror turkum so‘zining) otlashuvi esa uning gapda ot bajaradigan sintaktik vazifada kelishidir...”¹⁶

S.Usmonovning M. Mirzayev va I. Rasulovlar bilan hamkorlikda yozgan “O‘zbek tili” nomli asari (1978)da ham sifatlar tahlili ancha ixcham berilgan.

¹⁴ Xoliyorov M. Ot negizlaridan so‘z yasovchi affikslar // O‘zbek tili va adabiyoti, 1973, 1-son, - B.82.

¹⁵ Sodiqova G. Sezgi ifodalovchi sifat sememalari // O‘zbek tili va adabiyoti, 1977, 3 –son, - B.53-55.

¹⁶ Tursunov U., Muxtorov J. Sifat // Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, qayta ishlangan, to‘ldirilgan uchinchi nashri. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. 280 – 287 –bet.

Lekin bu asarda, bizningcha, bir noaniqlikka yo‘l qo‘yilgan, ya’ni rus tili orqali kirgan ba’zi sifatlar tarkibida uchrovchi *-ik (pedagogik)*, *-iv (obyektiv, progressiv)*, *-l, -al (formal, gorizontal)*, *-on (intonatsion)* kabi affiksalar sifat yasovchi affiksalar deb talqin qilinadi.¹⁷ Bu fikrga O. Madrahimov ham o‘zining “O‘zbek tilida sifat va yangi yasalgan sifatlar masalasiga doir” nomli maqolasida qo‘shilib, yangi yasalgan sifatlar haqida so‘z yuritir ekan, rus tili orqali o‘zlashgan sifatlar tarkibida qo‘llanuvchi *-ik, -iv, -al, -l, -ion, -sion, -atsion* affikslarini o‘zbek tilida mustaqil qo‘llanuvchi, o‘zlashgan sifat yasovchi affiksalar, deb hisoblaydi. Bu mulohaza dots. T.Xo‘jayevning quyidagi fikrlari orqali inkor etiladi: “Bizningcha, *antik, kosmik, genetik, simfonik, dekorativ, operativ, kooperativ, aktiv, real, optimal, internatsional* sifatlari yasaluvchi negizlarga va yasovchi affikslarga ajralmaydi. Demak, ular affiksalar formal sifatlari emas. Chunki ular o‘zbek tilida yasalgan emas, balki o‘zbek tiligacha yasalgan. O‘zbek tilida esa ular bitta morfema holida qisqartirish bilan hozirgi holatida, aniqrog‘i affiksli formada emas, balki morfemalarga ajralmaydigan negiz formasida qabul qilingan. Demak, ular etimologik jihatdangina yasama sifatlardir. O‘zbek tilida esa ular nisbatan yangi so‘zlar bo‘lgani holda, morfologik strukturasi jihatidan tub sifatlardir.”¹⁸ Ayni fikrlarga Zafar Pardayev o‘zining “O‘zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari” ilmiy monografiyasida ham qo‘shilayotganini bildiradi va T.Xo‘jayevning yuqoridagi fikrlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Bizning fikrimizcha esa, yuqorida tilga olingan o‘zlashma qo‘shimchalar internatsional qo‘shimchalar bo‘lib, bora–bora o‘zbek tiliga ham singishib, yangi o‘zbekcha so‘zlar yasalishiga xizmat qilishi ham mumkin. Buni biz o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyot evolutsiyasi orqali yaqqol isbotini ko‘rishimiz mumkin. Chunonchi arab tili orqali o‘zlashgan *-iy, -viy* yoki fors tili orqali kirib kelgan *-xona, -kor, no-, bo-, be-* kabi qo‘shimchalarning, dastavval, faqat o‘zlashma so‘z yasalishidagi ishtirokiga guvoh bo‘lgan bo‘lsak, keyinchalik bu qo‘shimchalar o‘zbek tili affiksalar tarkibiga shu

¹⁷ Usmonov S. Sifat // Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978, 100 – 109 – betlar.

¹⁸ Xo‘jayev T., Mullajonova H. Yangi yasalgan sifatlar tahliliga tanqidiy obzor // O‘zbek tili grammatik qurilishi, leksikologiyasi va dialektologiyasi masalalari, Samarqand: SamDU nashri, 1976, 89 – 99 – betlar.

qadar singib ketdiki, endilikda biz ulardan bemalol sof o'zbekcha so'zlar yasashda ham foydalanyapmiz. Til taraqqiyotida bunga o'xshash misollarga ko'plab duch kelishimiz mumkin. Rus tili orqali o'zlashgan ba'zi qo'shimchalarning taqdiri ham xuddi shu ko'rinishda davom etsa, ajabmas. Chunki til hamonki, ijtimoiy hodisa ekan, unda turfa xil o'zgarishlar va yangilanishlar sodir bo'lishi juda tabiiy hol hisoblanadi.

“Hozirgi o'zbek adabiy tili” (1-qism, 1980) nomli darslik o'zbek tilshunosligida salmoqli o'rin tutadi. Ana shu asardagi “Sifat” mavzusi yirik tilshunos olim Azim Hojiyev qalamiga mansub.¹⁹ Bu darslikda sifatlarning grammatik xususiyatlarini tahlil etishda oldingi ishlarga nisbatan farqli tomonlar ancha ko'proq. Eng muhimi, bu ishda sifatlarning asliy va nisbiy deb ikki turga ajratilmagan, bunday yo'l tutishning sababi ham ko'rsatilmagan. Sifatlarda oddiy (normal) daraja, orttirma daraja va ozaytirma daraja mavjudligi ta'kidlangan. Orttirma daraja fonetik usul bilan (*dum–dumaloq, ko'm–ko'k*), leksik usul bilan (*nihoyatda baland, behad xursand, juda go'zal*), ozaytirma daraja esa leksik usul bilan (*sal durust, bir oz yaxshi, xiyol ochiq*), morfologik usul bilan (*kattaroq, kichikroq, sarg'ishroq* kabi) hosil bo'lishi izohlab berilgan.

Tilshunos olim A. Hamitova 70–80–yillarda turkiy tillarda so'z ma'nosining kuchaytiruv vositalarini o'rganish sohasida qator ishlarni amalga oshirdi. Olimaning nomzodlik dissertatsiyasi, bir necha ilmiy maqolalari hamda “Turkiy tillarda so'z ma'nosining analitik yo'l bilan kuchaytirilishi” nomli monografiyasi (1984) xuddi shu muammoni o'rganishga bag'ishlangan edi. Olimaning kuzatishlaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, o'zbek tilida *juda, eng, g'oyat, nihoyatda, bir, biram tim, naq, zap, behad, benihoya, cheksiz, beqiyos* kabi so'zlar sifat darajalari singari belgini kuchli, emotsional bo'yoqdor shaklda ifodalashga xizmat qiladi.²⁰

¹⁹ Hojiyev A. Sifat // Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili, 1- qism. – Toshkent: O'qituvchi, 1980, 251 – 258 – betlar.

²⁰ Hamitova A. Turkiy tillarda so'z ma'nosining analitik yo'l bilan kuchaytirilishi. – Toshkent: Fan, 1984. – 104 b.

80–yillarda S. G‘iyosov o‘zbek tilidagi subyektiv baho sifatlarining semik tahlilini amalga oshirdi, shu mavzuga oid bir necha ilmiy maqolalar yaratdi²¹ va nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Masalan, S. G‘iyosov “O‘zbek tilida asliy sifatlarining ko‘chma baholash ma‘nosi haqida” nomli maqolasida dastlab asliy sifatlarini ma‘no jihatdan tabiiy (fizik) xususiyatlarni ifodalovchi (*katta tosh, kichik tosh* kabi) va subyektiv baho ma‘nolarini ifodalovchi (*yaxshi, chiroyli* kabi) deb ikki guruhga ajratadi. Shundan keyin fizik belgi ifodalovchi sifatlar ko‘chma ma‘noda qo‘llanganda ularning semantik strukturasi ro‘y beradigan o‘zgarishlarni birma–bir tahlil etadi, buning uchun *og‘ir* so‘zining turli matnlarda qo‘llanilishiga oid misollarni keltiradi.

Ma‘lumki, o‘zbek tili semasiologiyasining asosiy nazariy muammolaridan biri leksik materialni tahlil qilish birligi va bu birliklarning asosiy lug‘aviy birlik (so‘z)ga munosabati masalasini aniqlashdir. Shuningdek, o‘zbek tili lug‘at tarkibining leksik–semantik guruh (LSG) larini sinchiklab o‘rganish o‘zbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb muammolardan bir sanaladi.²² Masalaga shu nuqtai – nazardan qaraganda, S. G‘iyosovning subyektiv baho ifodalovchi (SBI) sifatlarini sakkiz ichki LSG ga ajratib tahlil qilishi, bu LSG larning bir – biridan semik tarkibi jihatidan farqli tomonlarini ko‘rsatishi diqqatga sazovor. Masalan, S. G‘iyosovning fikriga ko‘ra, subyektiv aqliy faoliyatiga ko‘ra belgini ifodalovchi LSGga *aqli, dono, oqil* kabi sifatlar kiradi. Ular subyektiv aqliy faoliyati bahosini turli jihatdan xarakterlaydi.²³

²¹ G‘iyosov S. O‘zbek tilida asliy sifatlarining ko‘chma baholash ma‘nosi haqida // O‘zbek tili va adabiyoti, 1982, 4 – son, 51 – 54 – betlar.;

G‘iyosov S. Asliy sifatlarining ikki semantic gruppasi haqida // O‘zbek tili va adabiyoti, 1984, 1-son, 58 – 60 – betlar.;

G‘iyosov S. O‘zbek tilida subyektiv baho sifatlarining semik tahlili // O‘zbek tili va adabiyoti, 1986, 2 –son, 28 – 32 – betlar.

²² Qo‘chqortoyev I. So‘z ma‘nosi va uning valentligi (o‘zbek tilidagi nutq fe‘llari materiali asosida). – Toshkent: Fan, 1977. – 168 b.

²³ G‘iyosov S. O‘zbek tilida subyektiv baho sifatlarining semik tahlili // O‘zbek tili va adabiyoti, 1986, 2-son, 28 – 32 – betlar.

O'zbek tilshunosligida sifat so'z turkumini o'rganish bilan bog'liq har bir ilmiy tadqiqotning o'ziga xosligi, izlanish metodlarining xilma – xilligi ko'zga tashlanadi. M. G'anixo'jayeva esa nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek tilidagi rang bildiruvchi sifatlarni qiyosiy – tarixiy yo'nalishda tadqiq etib, ularning rivojlanish dinamikasini, sof turkiy va o'zlashgan rang bildiruvchi so'zlar qatlamini aniqlagan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, eski o'zbek tili yozma yodgorliklarida *qizil*, *ko'k yashil* singari rang bildiruvchi so'zlar ko'chma ma'nolarda qo'llanmaydi, substantivatsiyaga uchragan *qora* so'zi esa eng ko'p – sakkiz ma'noda qo'llanilishi ma'lum bo'ladi; rang bildiruvchi so'zlarning yozma yodgorliklar tilida qo'llanish chastotasi quyidagicha: *qora* – 18,8 %, *oq* – 15,8 %, *qizil* – 6,89 %, *ko'k* – 3,5 %, *yashil* – 2,5 %, *sariq* – 2,5 % kabilar.

Y. Tojiyev o'zbek tilshunosligida affiksali sinonimiya muammolarini tadqiq etishga salmoqli hissa qo'shdi. Jumladan, uning qator ilmiy maqolalari,²⁴ monografiyasi sifat yasovchi affikslarning ma'nodoshligi masalasini o'rganishga bag'ishlangan. O'zining bu sohadagi izlanishlarini olim keyinchalik doktorlik dissertatsiyasida umumlashtirdi. Bu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida ot turkumiga oid so'zlardan sifat yasab, o'zakdan anglashilgan obyektga umuman ega ekanlikni bildiruvchi -li// -dor, -li// -ser, -dor// -ser, -li// -ba, -li // -kor, -li// -mand, -li// -don, -li// -nok -li// -chan, -li// -toy, ba// -dor, ba// -chan kabi so'z yasovchi affikslar sinonimik juftliklarni hosil qiladi. Shuningdek, ot turkumiga oid so'zlardan sifat yasab, o'zakdan anglashilgan obyektga ega emaslikni bildirgan -siz//be-, -siz//no-, be//no-, -siz// nim- kabi so'z yasovchi affikslar ham tilimizda sinonimik juftliklarga ega ekanligini ta'kidlab o'tadi.

R.R. Lutfullayeva nomzodlik dissertatsiyasida rus va o'zbek tilidagi baynalminal asosga ega bo'lgan *aktiv, intensive, progressiv, agressiv, agrotexnik, omonimik, sinonimik, antonimik, funksional, internatsional, okkazional, ekspressiv*,

²⁴ Tojiyev Y. -li, -dor va -ser affikslarining sinonimik munosabati haqida // O'zbek tili stilistikasi masalalari, ToshDU asarlari, 427 – chiqishi, Toshkent: 1972. – 181 – 186 – betlar;

emotsional, ratsional singari sifatlarning qo‘llanish xususiyatlarini, ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish usullarini, muqobil variantlarini o‘rgangan edi.

90- yillarda nashr etilgan “O‘zbek tilining amaliy grammatikasi” (1992), “O‘zbek tili jadvallarda” (1993), “O‘zbek tili” (ixtisoslik grammatikasi, 1993) kabi qo‘llanma va darsliklarda sifat turkumiga oid so‘zlarni tahlil qilishda an‘anadan chekinish hollari unchalik ko‘zga tashlanmaydi. Masalan, “O‘zbek tilining amaliy grammatikasi” (1992) asarida sifatlarning qo‘llanish xususiyatlarini yoritishga alohida e‘tibor berilgan. Ozaytirma va kuchaytirma sifatlar (*oqish, kattagina, juda nafis*), bosh qismi takrorlangan sifatlar (*ko‘m-ko‘k, qop – qora, yam – yashil, kap – katta*), ko‘chma ma‘noli sifatlar (*tulki odam, anor yuz, tosh yurak*), asosan, turli uslubiy maqsadlarda qo‘llanishi ta‘kidlab ko‘rsatilgan.²⁵ “O‘zbek tili” (1993) nomli darslikda esa sifat haqida quyidagi ixcham ma‘lumot keltiriladi: “Sifat predmetning belgisini bildirib, asliy, nisbiy, ozaytirma va kuchaytirma darajalari bilan xarakterlanadi. Gapda esa aniqlovchi vazifasini bajaradi”.²⁶

“O‘zbek tili jadvallarda” asari mualliflari sifatning ma‘no turlarini yettiga ajratib ko‘rsatgan: a) xususiyat bildiruvchi sifatlar: *kamtar, quvnoq*; b) holat bildiruvchi sifatlar (*keksa, tinch*); v) shakl bildiruvchi sifatlar (*novcha, yassi, uzunchoq*); g) rang – tus bildiruvchi sifatlar (*qizil, sariq*); d) maza – ta‘m bildiruvchi sifatlar (*achchiq, nordon*); e) hid bildiruvchi sifatlar (*xushbo‘y, qo‘lansa*); y) narsa – buyumning vaqtga ko‘ra belgisini bildiruvchi sifatlar (*kuzgi, kechki*).²⁷

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida ham sifatlarning belgi – xususiyatlari, semantik tasnifiga doir qimmatli ma‘lumotlar berilgan. Bu darslikda sifat leksemalar o‘zbek tilining substansial yondashuv nazariyasi nuqatai–nazaridan o‘rganilgan bo‘lib, ba‘zi bir mulohazali o‘rinlarga ham ega. Darslikda

²⁵ Abdurahmonov H., Rafiyev A., Shodmonqulova D. O‘zbek tilining amaliy grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. 142 – bet.

²⁶ Nazarov K., Sayfullayeva R., Ubaydullayeva M. O‘zbek tili (ixtisoslik grammatikasi). – Toshkent: O‘qituvchi, 1993. – 30 – bet.

²⁷ Nurmonov A., Rasulov R. O‘zbek tili jadvallarda. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993. – 184 – bet.

sifatning umumiy grammatik ma'nosi (UGM) xususida quyidagi ma'lumotlarga duch kelishimiz mumkin: "Asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiruvchi darajalanuvchi so'z sifat deyiladi: *qizil qalam, oq kabutar, yaxshi gapirmoq*.

Boshqa so'z turkumi ham belgi ifodalaydi. Ammo sifat barqaror va turg'un belgi ifodalashi jihatidan ulardan ajralib turadi. Masalan, *Gul – qizil* deganda turg'un (statik) belgi, *Gul qizardi* deganda esa o'zgaruvchi (dinamik) belgi namoyon bo'lgan. Sifat anglatadigan belgi boshqa turkum anglatadigan belgidan xususiyati bilan farqlanadi. Masalan, *qizg'ish - qizil – qip – qizil*. Boshqa turkum anglatuvchi belgida esa bunday xususiyat yo'q. Sifat gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, qisman kesim, hol vazifasida keladi.

Shu asosda sifatning UGM sini "asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildirib, gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, ba'zan kesim, ayrim hollarda hol vazifasida kelish" ko'rinishida tiklash mumkin.

Belgi tushunchasi o'z ichiga rang – tus, hajm – shakl, xarakter, vazn, maza kabilarni qamrab oladi. Belgining xususiyatiga ko'ra sifat ikkiga bo'linadi: *asliy sifatlar* va *nisbiy sifat*.

Asliy sifat predmetning turg'un, nisbatlanmaydigan va darajalanadigan belgisini ifodalaydi: *[qizil], [sariq], [katta], [ko'p], [oz]*.

Nisbiy sifatlar belgini qandaydir bir predmet, belgi, miqdor, o'rin va harakatga nisbatan ifodalaydi: *moddiy yordam, siniq piyola, burchakdagi o'tirgich*. Nisbiy sifatda darajalanish, qiyoslanish bo'lmaydi. Lekin u daraja belgisiga ega bo'lgan ravishdan asosan predmet belgisini bildirishi bilan farqlanadi. Asliy sifatning barchasida daraja shakllari, ayrimida ozaytirma va kuchaytirma shakl bor.²⁸

²⁸ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. 237 – bet.

Lekin shuni ham ta’kidlash lozimki, keying yillarda yaratilayotgan ayrim asarlarda sifat soʻz turkumi haqida ba’zi eski, shu soʻz turkumi tabiatiga mos kelmaydigan xususiyatlar haqida ham fikr–mulohazalar bayon etilmoqda. Jumladan, nofilologik guruh talabalari uchun chiqarilgan “O‘zbek tili va adabiyoti” darsligida “sifatlarning ma’no turlari – asliy va nisbiy sifatlardan iborat bo‘ladi. Asliy sifatlar predmetning asl belgisini bildiradi (*qizil, yashil, botir*) kabi. Nisbiy sifatlar yasama sifatlardir, ammo ba’zan ayrim bosh kelishik shaklidagi otlar ham sifat turlariga kiradi: *oltin soat, g‘isht ko‘prik, tulki odam* kabi”, deb yozilgan.

Shunday qilib o‘tgan asrning 70 – 90 – yillarida o‘zbek tilshunosligi sifat turkumiga oid soʻzlarning grammatik va semantik xususiyatlarini tadqiq etish sohasida qator ishlarni amalga oshirdi.

1.2. Sifat uslubiylati va uning o'rganilishi

Sifat so'zlar ustida olib borilgan tadqiqotlar orasida morfologik uslubiylat doirasida, xususan, sifat uslubiylati xususida ham salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Mazkur faslda sifat uslubiylatiga oid tadqiqotlarga to'xtalmoqchimiz.

Taniqli tilshunos olim prof. A. G'ulomov morfologik uslubiylat muammolarining ilk tadqiqotchilaridan biridir. U 9– sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan “O'zbek tili darsligi”(1977) “Stilistika” qismining muallifi sanaladi.²⁹ Bu qismda morfologik uslubiylat, jumladan, sifatlarning uslubiyl jihatdan qo'llanish xususiyatlarini yoritishga ham alohida ahamiyat berilgan.

Prof.A.G'ulomov sifatlarning nutq jarayonida qo'llanilishida quyidagi ikki holatni alohida qayd etadi: a) otning aniqllovchisi bo'lib kelish holati: *oq qayin, quvnoq qiz, sho'x bola, tini osmon* kabi; b)kesim bo'lib kelish holati: *Osmon ko'm – ko'k. Suvlar tiniq. Bol yosh* kabi. Sifat bu ikki qo'llanish holatida ham predmetning belgisini bildiradi, lekin bu belgining tasvirlanish xususiyati bir xil emas. Kesim vazifasida kelgan sifat predmetning belgisini yo tasdiqlaydi, yo inkor qiladi. Aniqllovchi vazifasida kelgan sifat esa otdan anglashilgan ma'noni ba'zan toraytiradi: *oq lenta* (lentaning bir turi), ba'zan ma'no hajmiga ta'sir qilmaydi: *oq sut* (sutning rangiga ko'ra turi yo'q), ba'zan ko'chma ma'nodagi sifatlovchi aniqllovchi uslubiyl vazifa bajaradi: *oppoqqina chaqaloq* kabi. Olim o'zining sifatlarning uslubiyl xususiyatlari, sifat darajalari va boshqa forma yasalish imkoniyatlari haqidagi ilmiy – nazariy qarashlarini “Sifat haqida mulohazalar” nomli maqolasida yanada aniqlashtirdi va to'ldirdi.³⁰

Prof. R.Qo'ng'urov (1933–1994) haqli ravishda o'zbek tilshunosligida morfologik uslubiylat muammolarining dastlabki yirik tadqiqotchilaridan biri sanaladi. Olimning ilmiy merosida sifat so'z turkumining uslubiyl imkoniyatlarini tadqiq etish ham alohida o'rin tutadi.

²⁹ G'ulomov A. Stilistika // G'ulomov A., Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M. O'zbek tili darsligi, 9 – sinf uchun. – Toshkent: O'qituvchi, 1977, 28 – 79 – betlar.

³⁰ Ko'rsatilgan asar. 39 – bet.

R.Qo'ng'urov dastlab ilmiy to'plamlardan birida "Sifat stilistikasi" nomli ko'lamdor maqolasi bilan ishtirok etdi.³¹ Bu maqola sifatning asosiy semantik va grammatik xususiyatini ta'kidlovchi quyidagi ta'rif bilan boshlangan: "Sifat ma'lum bir belgini ko'rsatuvchi so'zlar gruppasi tarzida mustaqil, ammo funksiyasi jihatidan boshqa so'z turkum (ot va otlashgan so'z)larining ma'lum xususiyatini aniqlashtiruvchi, uning ma'nosiga aniqlik kiritishga yordam beruvchi so'zlar hisoblanadi".³² Shundan keyin olim *magazindan olma sotib oldim* va *magazindan qizil olma sotib oldim* gaplarini o'zaro muqoyasa qilib, keyingi gapda *qizil* sifat leksemasi sotib olinayotgan – narsaning rangi haqidagi tasavvurni oydinlashtirishga, aniqlashtirishga xizmat qilishini uqtirgan.

Sifat turkumiga oid so'zlar badiiy va publitsistik uslubda epitet (sifatlash) sifatida faol qo'llanish xususiyatiga ega ekanligi, sifatlarda ma'nodoshlik hodisasi keng tarqalgani ham olim e'tiboridan chetda qolmagan. Ana shundan kelib chiqib, maqolada sifatlarning stilistik kategoriya sifatida talqin qilish mumkin, degan xulosaga kelingan.

Prof. R.Qo'ng'urov sifatlarda biri ikkinchisini qo'llash imkoniyatini tadqiq etish uchun bir necha ma'nodosh sifat leksemalar guruhini tahlilga tortgan: a) *oriq, ozg'in, qiltiriq, dirdov, ipiltiriq, ramaqijon, log'ar*; b) *katta, ulug', buyuk, zo'r, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigant*; d) *chiroyli, go'zal, husndor, husnli, xushro'y, ko'hlik, ko'rkam, barno, suluv, zebo, latofatli, sohibjamol* kabi. Shunisi muhimki, keltirilgan bunday sinonimik qatorlarning har biriga xos sifat leksemalarning vazifaviy uslublarda qo'llanilish doirasi, ijobiy yoki salbiy ma'no bo'yog'iga egaligi, qaysi o'rinlarda ularni o'zaro biri o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin emasligi tadqiqotchi tomonidan aniq ko'rsatilgan, hamda sifat leksemalarning ma'nodoshlik xususiyati faqat leksikologiyada emas, grammatikada, aniqrog'i, morfologiyada ham o'rganilishi lozimligi alohida ta'kidlangan.

³¹ Qo'ng'urov R. Sifat stilistikasi // O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari (ilmiy maqolalar to'plami), Samarqand: SamDU nashri, 1982, 3-10- betlar.

³² Ko'rsatilgan asar. 8 – bet.

R.Qo'ng'urovning mazkur maqolasida sifat shakllarini hosil qiluvchi morfemalar sinonimiyasi tahliliga ham e'tibor qaratilgan. Dastlab olim daraja hosil qiluvchi *-roq, -mtir (-imtir,-imtil),-ish* kabi affiksial morfemalar sinonimiyasi haqida so'z yuritadi, shu masalaga oid xarakterli misollar keltiradi.Olim o'zining "Hozirgi o'zbek tilida o'zgarmaydigan so'zlar" (1978) nomli ishida bunday grammatik shakllarni "grammatik ma'no bilan bog'langan bo'lib, yangi leksik ma'noli,yangi so'z yasamaydigan, balki so'zlarni turli xil modifikatsiya qiladigan... modal forma yasovchi affikslar" deb hisoblagan, modallikni so'zlovchining aytilayotgan fikr mazmuniga fikr mazmunining borliqqa munosabatini anglatishi nuqtayi –nazaridan kelib chiqib, "modal forma" birikmasini keng ma'noda qo'llagan edi.³³ R.Qo'ng'urov morfologik uslubiyatga doir ishlarini predmet belgisining ortiqligini ko'rsatishga xizmat qiluvchi *eng* so'zi o'rni bilan *juda, g'oyat, nihoyat, behad, cheksiz, g'oyatda, nihoyatda* kabi so'zlar bilan vazifadoshlik qilish imkoniyatiga ega ekanligini izchil ochib berishga intilgan.³⁴

Maqola oxirida olim sifat yasovchi *-li, ba-, -dor, -siz, no-, -lik, -mand, -simon, -gi, -qi,-ki,-g'on, -gir, -kir -qir, -g'ir* singari affikslar sinonimiyasi masalasini asosli tahlil qilgan. Olimning ana shunday nozik ilmiy kuzatishlari o'z-o'zidan morfologik uslubiyat, jumladan, sifat so'z turkumi uslubiyati masalalarini tadqiq etishga keng yo'l ochganligini ta'kidlash o'rinlidir. Prof. R. Qo'ng'urov keyinchalik o'zining sifat so'z turkumi uslubiyatiga doir ana shu izlanishlarini yanada izchil davom ettirib, o' mulohazalarini hamkorlikda yaratilgan "O'zbek tili stilistikasi" asariga kiritgan edi.³⁵ Shu asnoda professor R.Qo'ng'urovni biz sifat so'z turkumining uslubiyatini maxsus o'rganishni boshlab bergan zahmatkash olim deyishga har jihatdan haqlimiz.

³³ Qo'ng'urov R. Hozirgi o'zbek tilida o'zgarmaydigan so'zlar, 1-qism. Samarqand: SamDU nashri, 1978. 66 – bet.

³⁴ Qo'ng'urov R. Sifat stilistikasi // O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari. Samarqand: SamDU nashri, 1982. 3 – 10 – betlar.

³⁵ Ko'rsatilgan asar. 6 – bet.

Prof. B.Yoʻldoshev statistik metod asosida kuzatish olib borib Said Ahmadning birgina “Ufq” trilogiyasi tilida rang –tus sifatleri ishtirok etgan yuzdan ortiq soʻz bogʻlanmasi mavjudligini aniqlagan, bunday sifatler koʻpincha epitet, oʻxshatish, metaforik birikma tarkibida keladi, *qizil*, *koʻk* va *yashil* sifatleri uchragan soʻz bogʻlanmalari eng koʻpchilikni (52,4% ni) tashkil etishini aniqlaganligini qayd etadi.³⁶

A.Abdurahmonov *qizil*, *oq* va *qora* soʻzlarining Oybek sheʼriyatida koʻchma maʼnoda qoʻllanish xususiyatlarini, yaʼni simvolik maʼnolarini aniqlashga intiladi. Maqolada taʼkidlanishicha, Oybek sheʼrlarida *qizil toʻlqin*, *qizil bayroq*, *qizil nur* *qizil qoʻshin*, *qizil askar*, *oppoq dastor*, *qora yer*, *qora quyun*, *qora boʻyoq*, *qora dud* kabi birikmalar ijtimoiy –siyosiy hayotning turli qirralarini obrazli poetiklashtirishga vosita boʻlgan.³⁷

Tilshunos olim S. Karimov esa shoira Zulfiya poeziyasida *goʻzal*, *oq*, *koʻk*, *aziz* kabi sifatleraning epitet vazifasida kelishi, bunda shoiraning individual uslubi, poetik mahorati haqida muhim fikr – mulohazalar bildiradi. Olimning fikricha, shoira Zulfiya ijod jarayonida soʻzga boʻlgan talabini kuchaytira bordi, ulardagi yangi maʼnolarni kashf qilishga intildi. Keyingi yillarda yaratilgan “dilparast sheʼr” (“Harorat”), “ishqparast qalb” (“Oʻrik gullaganda”), “baxmal toʻsh dara” (“Qayinzorda”), “sulhparvar ellar”, “tinchlik qoʻrgʻoni”, (“Salom sizga, erkparvar ellar”), “mayin qatʼiyat” (“Koʻkchatogʻ”), “jasur qalam” (“Mushoira”) kabi qator original epitetli birikmalar shoira tinimsiz ijodiy izlanishlarining, badiiy tafakkur kamolotining mevasidir.³⁸ Tadqiqotchi oʻzining epitetlarga doir bunday nozik kuzatishlarini keyingi ishlarida ham izchil davom ettirdi.³⁹

³⁶ Yoʻldoshev B. Said Ahmad asarlari tilida rang bildiruvchi sifatler va ularning stilistik funksiyalari haqida // Oʻzbek tili grammatikasi, dialektologiyasi va leksikologiyasi masalalari (ilmiy maqolalar toʻplami), yangi seriya, 319–chiqishi, Samarqand: SamDU nashri, 1977. 76 – 81 – betlar.

³⁷ Abdurahmonov A. *Qizil*, *oq* va *qora* soʻzlarining leksik –semantik xususiyatlari // Oʻzbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari (ilmiy maqolalar toʻplami), SamDU asarlari, yangi seriya, 346 –chiqishi, Samarqand: 1978. 27 – 31 – betlar.

³⁸ Zulfiya poeziyasi tilida epitetlar // Oʻzbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari (ilmiy maqolalar toʻplami), SamDU asarlari, yangi seriya, 346 –chiqishi, Samarqand: 1978, 58 – 66 – betlar.

³⁹ Karimov S. Oʻzbek tilining badiiy uslubi. – Samarqand: Zarafshon, 1992. – 140 – bet.

Yana bir tilshunos olim B. Yoriyev *qizil, qip –qizil, oppoq, qora* kabi sifatlarning xilma–xil uslubiy ma’nolarni ifodalashga xizmat qilishini, ular she’rning badiiy ta’sirchanligini oshirish vositasi ekanligini Maqsud Shayxzoda poeziyasi misolida yoritishga intilgan. Eng muhimi ishda sifatlarning okkazional ko‘rinishlari (*aqlli qo‘limiz, aqlli qo‘lmiz, otuvchi qalam, yozar multiq* kabi) bilan bog‘liq uslubiy xususiyatlar tahliliga e’tibor qaratilgan.⁴⁰

K. Yusupovning kuzatishlari esa publitsistik uslub nuqtai – nazaridan olib borilganligi ko‘zga tashlanadi. U XX asrning birinchi yarmi vaqtli matbuot materiallari asosida so‘z ma’nosida yuz beradigan o‘zgarishlarni o‘rganadi, bunda olim *qizil* va *qora* so‘zlarining bosh ma’nosidan tarkib topgan yondosh ma’nolar (*qizil choyxona, qizil adliyachi, qizil matbuot, qizil bayram, qizil kun, qizil ketmonchi; qora xat, qora yolg‘on, qora o‘tmish* kabilar)ni tahlil qilishga intiladi. Olim sifatlarning boshqa so‘zlar bilan aloqaga kirishuvi va sintaktik birikma hosil qilishini kolligatsiya hamda kollokatsiya atamaları bilan yuritish tarafdori sifatida ko‘rinadi. Monografiyada ta’kidlanishicha, *kolligatsiya* grammatik ma’nolarga asoslangan umumiy hodisa sanalsa, *kollokatsiya* kolligatsiyaning nutqiy talabga ko‘ra yuzaga chiqishidir.⁴¹

Prof. B.O‘rinboyev o‘zbek tilida so‘zlashuv nutqi uslubi, uning o‘ziga xos fonetik, grammatik va uslubiy xususiyatlarini tadqiq etish sohasida qator ishlarni amalga oshirdi.⁴²Jumladan, olim o‘zining keyingi ishida sifat leksemalarning so‘zlashuv nutqi uslubida epitetlar hosil qilishda keng qo‘llanilishini ta’kidlaydi, hamda sifatlarning ozaytirma, orttirma darajalarini hosil qiluvchi *tum – tumaloq, bus – butun, bo‘m – bo‘sh, pak – pakana, to‘g‘ridan- to‘g‘ri, yaxshi – yaxshi, sarxil – sarxil, tim qora, yanada chiroyli, undan ham yaxshiroq, qoramtir,*

⁴⁰ Yoriyev B. Sifatlarning stilistik xususiyatlari (Maqsud Shayxzoda she’riyati misolida) // O‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari (ilmiy maqolalar to‘plami), Samarqand: SamDU nashri, 1980. – 56 – 59 – betlar.

⁴¹ Yusupov K. O‘zbek adabiy tilining leksik – semantik va stilistik xususiyatlari (XX asrning birinchi yarmi vaqtli matbuoti materiallari asosida). – Toshkent: Fan, 1986. 124 – bet.

⁴² O‘rinboyev B., O‘rinboyeva D. Hozirgi o‘zbek tilining so‘zlashuv uslubi. – Toshkent: Fan, 1991, - 160 bet.

ko'kimtir, oppoq kabi shakllarning uslubiy imkoniyatlarini yorituvchi xarakterli dalillar keltiradi.

Akademik litsey talabalari uchun yaratilgan “ Hozirgi o'zbek adabiy tili” darsligida “ Sifat va uning uslubiyati”, “Sifat darajalarining uslubiy xususiyatlari”, “Sifat yasovchi qo'shimchalarning uslubiy xususiyatlari” kabi mavzularni o'rganishga alohida o'rin berilgan.⁴³ Bu darslikda to'g'ri ta'kidlanganidek, “sifat yasovchi *-li* qo'shimchasi - *dor*, - *kor* qo'shimchalari va *ba-* old qo'shimchasi bilan sinonimik munosabatda bo'ladi, shuning uchun ularni birining o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin. Masalan, *go'shtli* – *go'shtdor*, *gunohli* – *gunohkor*, *mazali* – *bamaza* kabi; lekin doimo ham ularni bir – biri bilan almashtirish mumkin emas. Masalan, *yurakli*, *kuchli* so'zlarini *bayurak*, *yurakdor*, *yurakkor*, *kuchdor*, *bakuch*, *kuchkor* deb bo'lmaydi Shunga ko'ra sifat yasovchi qo'shimchalardan o'rinli foydalanish katta ahamiyatga ega”.⁴⁴

O'zbek tilida sifatlarning semantik – uslubiy xususiyatlari borasida qilingan eng yaxshi tadqiqotlardan biri tilshunos olim Zafar Pardayevning “O'zbek tilida sifatlarning semantik – uslubiy xususiyatlari” nomli ilmiy monografiyasidir. Mazkur monografiyada o'zbek tilshunosligida sifat leksemalarning semantik strukturasi va ularning funksional – uslubiy xususiyatlari keng yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotda tilimizdagi rang – tus, ruhiy holat, ko'lam me'yori, xarakter – xususiyat, maza – ta'm, hid, vazn – og'irlik, o'rin va paytga munosabat bildiruvchi sifat leksemalarida ma'no ko'chish sabablari aniqlangan, sifat leksemalarda ma'nodoshlik va ko'p ma'nolilik xususiyatlari badiiy matnlardan olingan misollar asosida yoritilgan.⁴⁵

Umuman olganda, sifat so'zlarining o'zaro sinonimiyasi, ularning turli nutq uslublarida farqlanishi, sifat darajalarini hosil qiluvchi shakllarning ma'no farqlari,

⁴³ Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Sharq, 2002. – 352 bet.

⁴⁴ Ko'rsatilgan asar. 128 – bet.

⁴⁵ Zafar Pardayev. O'zbek tilida sifatlarning semantik – uslubiy xususiyatlari. Samarqand: SamDU nashri, 2007. – 129 bet.

nihojat, badiiy adabiyotdagi epitetlarning sifatlardan ifodalanishi bu turkum soʻzlarning boy uslubiy imkoniyatlarini koʻrsatadi.

Shu bilan birga, sifat leksemalarning semantik – uslubiy xususiyatlari ular birikib kelgan ot va otlashgan soʻzlarning maʼno nozikliklarini hisobga olgandagina toʻla anglashiladi.

Bob bo'yicha xulosa

I bob bo'yicha xulosalarimiz quyidagicha:

1. Tilshunosligimiz tarixida sifat so'z turkumi haqidagi ilk tadqiqotlar juda qadim davrlarga borib taqaladi. Chunonchi, Koshg'ariydan boshlangan bu zanjir halqalari Navoiy davri va undan keyin XX asrning birinchi choragiga kelib, o'z takomilining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Bunda Abdurauf Fitratning, keyinchalik rus sharqshunos olimlarining xizmatlari katta bo'ldi.

2. O'zbek tilshunosligida sifat so'z turkumiga oid ilk ilmiy tadqiqot 40 – yillarning ikkinchi yarmida vujudga kelgan edi. Z. Ma'rufov 1947 – yilda Sankt – Peterburgda “O'zbek tilida sifat darajalari”, 1950 – yilga kelib G'. Abdurahmonov Samarqandda “Hozirgi o'zbek tilida sifatlarning substantivatsiyasi (otlashishi)”, 1955 – yilda O. Madrahimov “Hozirgi o'zbek tilida yangi yasalgan sifatlar” mavzuidagi nomzodlik ishlarini himoya qilgan edi. 1957–yilda O. Madrahimovning “O'zbek tilida sifat va yangi yasalgan sifatlar masalasiga doir” nomli maqolasi e'lon qilingan edi.

3. Sifat so'z turkumi doirasidagi ishlar orasida sifat so'zlarning semantik – uslubiy xususiyatlarini tadqiq etuvchi ishlar alohida ahamiyat kasb etadi. A. G'ulomov, R. Qo'ng'urov kabi olimlar o'zbek tilida morfologik uslubiyat masalasiga oid ilk dolzarb ishlarni amalga oshirdilar. Bunda olimlarning sifat so'zlarning uslubiy xususiyatlari borasidagi qarashlari keyinchalik bu mavzuning o'zbek tilshunoslik ilmida chuqur tomir otib rivojlanishiga turtki bo'ldi. B. Yo'ldoshev, A. Abdurahmonov, S. Karimov, B. Yoriyev, M. Mamatov, K. Yusupov, B. O'rinboyev, Z. Pardayev kabi tilshunoslarning aynan shu mavzudagi tadqiqotlari yuqoridagi fikrimizning yaqqol dalilidir.

II BOB. O‘ZBEK TILIDA RANG VA MAZA-TA’M BILDIRUVCHI SIFAT LEKSEMALARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

2.1. Badiiy matnda rang –tus sifatlarining uslubiy voqelanishi

O‘zbek tilida sifat leksemalarning, xususan, rang – tus bildiruvchi sifat leksemalarning uslubiy vosita sifatida poetik nutqda qo‘llanish imkoniyatlari, turli ma’no nozikliklarini ifodalash uchun xizmat qilishi, qo‘llanish darajasi, semantik strukturasi hozirga qadar tilshunoslikda maxsus o‘rganilgan emas. Uslubiyat bo‘yicha yaratilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarida ham bu haqda aniq ma’lumotlarni uchratmaymiz.⁴⁶

Ma’lumki, o‘zbek tilida *oq, qora, qizil, sariq, zangori, ko‘k, yashil* kabi bir qator sifat leksemalar predmetning rang – tusini ifodalaydi. Ot turkumiga oid so‘zlar o‘z tabiatiga ko‘ra bir qator belgi–xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi, boshqacha qilib aytganda, belgi –xususiyat otlarning doimiy yo‘ldoshi bo‘lib, ulardan ajrala olmaydi. Rang bildiruvchi sifatlarning har biri o‘ziga xos semantik strukturasi va uslubiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ularning uslubiy imkoniyatlari, okkazional semalarni ifodalash xususiyati nutq jarayonida yuzaga chiqadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning mazkur faslida aynan rang – tus sifat leksemalarning uslubiy ma’no qirralari haqida so‘z boradi. Bunda bir qancha o‘zbek va jahon adabiyoti ijodkorlari asarlaridan (ko‘proq she’riy asarlardan) misollar keltirib, fikrlarimizni asoslashga harakat qildik.

Dastavval, rang – tus sifatlari orasida badiiy ijodda eng faol leksemalardan bo‘lmish, *oq* va *qora* sifat leksemalari xususida to‘xtalmoqchimiz. *Qora* sifat leksemasi nutqda faqat predmetning rangini ko‘rsatish maqsadida qo‘llanganda, emotsional – ekspressivlikdan xoli bo‘ladi, uning vazifasi rang to‘g‘risida xabar, ma’lumot berish bilangina cheklanadi. Nafaqat qora sifat leksemasi, balki barcha

⁴⁶ Qo‘ng‘urov R. Sifat stilistikasi // Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983, 109 – 113 – betlar;
Qilichev E. O‘zbek tilining amaliy stilistikasi (grammatika). – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 bet.

rang – tus sifatlariga ham xuddi shu fikrni aytish mumkin. Masalan, *qora qalam, oq daftar, moviy osmon, ko‘k ruchka, qizil qon* va hokazo. Bu birikmalarda biz hech qanday uslubiy ma’no xususiyatlariga duch kelmaymiz. Chunki bunday birikmalar uslubiy bo‘yoqdorlikdan xoli hisoblanadi. Biroq bu sifat leksemali birikmalarning hokim bo‘lagi o‘zgarsa, sifat leksemalarning ma’no qirralari ham o‘zgarishga yuz tutishi, yana ham aniqrog‘i uslubiy ma’no kasb etishi mumkin. Masalan, *qora o‘tmish, oq ko‘ngil, moviy havo, qizil dunyo* kabi.

Qora leksemasi so‘zlovchi yoki yozuvchining o‘z nutqi qaratilgan shaxsga bo‘lgan munosabati nuqtai – nazaridan matnga bog‘liq holda ijobiy yoki salbiy ekspressivlikni ifodalashi mumkin. Bu leksema inson organizmining yuqori qismida joylashgan a‘zolar (soch, qosh, ko‘z)ni tasvirlash maqsadida qo‘llanganda rang ma’nosiga ijobiylik semasini ham kiritadi: **Qaro** qoshing, *qalam qoshing. Qiyiq qayrilma qoshing qiz // Qilur qatlimga qasd qayrab, Qilich qotil qaroshing qiz.* (E. Vohidov). *Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin // Ko‘ngluma har birining dard-u balosinmu deyin.* (Alisher Navoiy).

Keltirilgan misollarda mualliflarning o‘zlari tasvirlayotgan kishilarga bo‘lgan ijobiy munosabati ularga tegishli bo‘lgan a‘zolarining belgilarini sifatlashlar yordamida keltirish orqali ifodalanmoqda. Demak, *qora* leksemasi bu o‘rinda rang – tusni bildirishdan tashqari muallifning kayfiyatini, mehr – muhabbatini ham ma’lum darajada bildirib kelayotir. Umuman, *qosh, ko‘z, soch* kabi a‘zolariga nisbatan *qora* leksemasi epitet sifatida qo‘llanganda ijobiy munosabat semasi ma’lum darajada aks etadi. Quyidagi misolda esa boshqacha holat ko‘zga tashlanadi: *O‘tmishsiz, kechmishsiz, manglayi qaro, // Yoqavayron bo‘lgan odamlar aro.* (Shavkat Hasan). *Lekin yomon yurardi // Xo‘p qora edi ichi* (H. Olimjon).

Muallifning o‘zi tasvirlayotgan kishi xarakteridagi odob–axloq normalariga mos kelmaydigan jihatlar – munofiqlik, g‘alamislik, g‘iybatchilik, ochko‘zlik, berahmlik singari sifatlarni ko‘rsatishga intilishi uning *qora* leksemasini salbiy semada qo‘llashga asos bo‘lgan. *Qora* leksemasi bu o‘rinda yuqorida qayd etilgan

salbiy belgilarni o'zida mujassamlashtirgan va matnga bog'liq holda ma'no anglatish doirasini kengaytirgan. Umuman, *qora* leksemasi ana shu xususiyatiga ko'ra ich so'zi bilan birikib, tilimizda "yomon niyatli, boshqalarga yaxshilikni ravo ko'rmaydigan" ma'nosini ifodalovchi *ichi qora* frazemasi sifatida qat'iylashib qolgan.⁴⁷ Zafar Pardayevning "O'zbek tilida sifatlarning semantik – uslubiy xususiyatlari" nomli ilmiy monografiyasida *qora* leksemasining yana tilimizda quyidagi okkazional semalarni ifodalashi mumkinligi e'tirof etilgan: motam, qayg'u, kun, kunning ma'lum vaqti, yorug'lik – qorong'ulik darajasi kabi. Tadqiqotda olim *qora* leksemasining yigirmaga yaqin semasi xususida fikr bildirib o'tgan.⁴⁸

A. N. Kononov *qora* sifat leksemasining ma'nolarini tadqiq etib, bu leksema bilan "katta", "yirik", "muhtasham", "ulug'", "qudratli", "kuchli", "pokiza", "musaffo", "quruqlik", "yer", "zulmat ko'ki", "shimol" kabi semalar ifodalanganligini ko'plab misollar yordamida izohlab bergan edi. Ilmiy tadqiqotlarning guvohlik berishicha, turkiy xalqlarda bir zamonlar *qora* rangli bayroqlar bo'lgan. Jumladan, adabiyotshunos olim I. Haqqul Ergash Jumanbulbul kuylagan "Dalli" dostonidagi bir baytda shunga ishora borligiga asoslanib, "Qorabosh tug'" (*qora* rangli bayroq) – boshini o'linga tikkan mard, jasur jangchilar bayrog'ini bildirib, bu o'rinda eroniylarning bayrog'iga qarshi tiklangan turkiy tug'dir", degan xulosani bayon etgan.⁴⁹ Umuman, Ibrohim Haqqulning *qora rang* talqiniga doir kuzatishlari shundan dalolat beradiki, " turkiy qavmlar islomgacha va islomdan keyin ham *qora* rangdan salbiy ma'no, holat va hodisalarni xarakterlashda nechog'lik keng

⁴⁷ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 408 b.

⁴⁸ Pardayev Z. O'zbek tilida sifatlarning semantik – uslubiy xususiyatlari. – Samarqand: SamDU nashri, 2007. 36 – 44 – betlar.

⁴⁹ Ibrohim Haqqul. *Qora rang – muborak rang* // Ibrohim Haqqul. Zanjirband sher qoshida (Navoiy saboqlari). – Toshkent: Yulduzcha, 1989, 36 – 45 – betlar.

foydalanishgan bo‘lmasin, haq ahli, ma’no va ishq sohiblaridan hech bir kishi mohiyati ilohiyotda qora rangning muqaddasligiga sira shubha qilmagan. Hatto Sharq she’riyatida takror – takror ishlatilgan “qora ko‘z” (chashmi siyoh), “qora zulf” (zulfi siyoh), “qora xol”, “qora balo” singari o‘nlab istioraviy ibora va tashbehlar irfoniy haqiqatlar ifodasi uchun ham xizmat ettirilgan.”⁵⁰ Ibrohim Haqqulning mazkur fikrini asoslash uchun Hofiz Sheroziyning butun turk dunyosiga mashhur quyidagi misralarini keltirish kifoya, deb o‘ylayman: *Agar ko‘nglimni shod etsa, o‘shal Sherozning jononi, // Qaro xoliga baxsh etgum Samarqand –u Buxoroni.* Yoki Halima Xudoyberdiyevaning quyidagi misralarini aytish mumkin: *Siz desam, bar tutqazmay, sochilgan o‘ylarimday, // Bu tong qaro sochlarim mayda – maydadir, begim.*

Z. Pardayev e’tirof etganidek, *qora* sifat leksemasining uslubiy ma’no qirralari benihoya ko‘p. Shuningdek, tilimizda bu so‘z ifodalagan simvolik ma’noni boshqa sifat leksemalar ham ifodalashi mumkin. Masalan, o‘zbek tilida faqat *qora* sifat leksemasigina emas, balki *ko‘k* sifat leksemasi ham ramziy motam ma’nosini anglatgan. Bunga misol qilib, Usmon Azimning quyidagi misralarini keltirishimiz mumkin: *Sevgimiz o‘ldimi? – libosingiz ko‘k, // Ko‘nglingiz - begulxan, ko‘zingiz – becho‘g‘.*

Shuningdek, *qora* sifat leksemasi she’riyatda *oq* sifat leksemasi bilan qarshilantirilgan holda, keng uslubiy ma’nolarda qo‘llaniladi. Bunga Azim Suyunning “Oq va Qora”, Usmon Azimning “Grafika” she’rlarini yaqqol misol keltirish mumkin:

Ko‘zing qaro sening, qoshlaring qaro,

Yuzlaring oq sening, kulishlaring oq.

⁵⁰ Ko‘rsatilgan asar. 43 – bet.

*Qo'lingdagi ta'na toshlaring **qaro**,
Menga g'amgin boqib turishlaring **oq**.*

*Unutishing - **qaro**, hijroning – **qaro**,
Sog'inching **oppoqdir**, xatlaring – **oppoq**.
Qarodir yurganing o'ch – mehr aro,
Menga tashlab ketgan dardlaring – **oppoq**.*

*Shommi, yo saharmi – vaqtimdir **qaro**,
Sen deb to'kayotgan yoshlarim **oppoq**.
Sening ham, mening ham baxtimdir **qaro**,
O'ttiz to'rt yoshingda sochlaring **oppoq**.*

*Ishon, yurak **oqdir**, **qarodir** taqdir,
Oq – qora bo'yoqlar bizning bog'larda...
Men milyon bo'yoqni bilardim, axir,
Ikkimiz baxtiyor bo'lgan chog'larda.*

Usmon Azim.

***Oq** buloqni izladim,
Qora buloq duch keldi.
Qora buloq suvidan ichdim, yoronlar,
Oq buloqqa yetkuncha.
Oq daryoni izladim –
Qora daryo duch keldi.
Qora daryo bag'rida cho'mildim, do'stlar,*

Oq daryoga o'tguncha.
Oq tog'larni izladim,
Qora tog'lar duch keldi.
Qora tog'lar quchog'ini kezdim, yoronlar,
Oq tog'larga yetguncha.
Oq va qora dunyoni,
Chappor urib aylangum.
Oq shomlar tugab do'stlar,
Qora shomlar quchguncha

Azim Suyun.

Har ikkala she'rda ham *oq* va *qora* sifat leksemalari uslubiy ma'no tashimoqda. Ikkalasida ham *oq* sifat leksemasi ijobiy semani, *qora* sifat leksemasi esa salbiy semani ifodalashga xizmat qilgan. Ko'rinadiki, *oq* va *qora* rang – tus sifatlarining poetik nutqda uslubiy vazifa bajarish ko'lami nihoyatda keng. She'riyatda har bir shoir *oq* va *qora* leksemalarini qo'llashda ma'lum bir ma'no nozikliklarini, okkazional semalarni ifodalashni ko'zda tutadi. Shunisi xarakterliki, poetik matnlarda insoniy munosabatlar rang – tus bildiruvchi sifat leksemalar vositasida aniq, lo'nda va obrazli tarzda ifodalanadi. *Oq* va *qora* sifat leksemalari insoniy munosabatlar, xarakterlar tasvirining ikki qutbi – antonimi sanaladi.⁵¹ *Oq* leksemasini qo'llashda insonga xos bo'lgan barcha ijobiy jihatlar nazarda tutilsa, *qora* leksemasini qo'llashda esa buning tamomila aksi tushuniladi. Ularni poetik nutqda, hatto bir she'r doirasida qarama – qarshi qo'llash esa fikrni aniq ifodalash, mazmunni kuchaytirish, ta'sirchanlikni oshirish imkonini yaratadi.

⁵¹ Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 232 bet.

Yuqorida Azim Suyunning “Oq va Qora” she’rida shoir *oq* va *qora* leksemalarini *buloq*, *daryo*, *tog’*, *dunyo*, *shom* soʻzlari bilan birga qoʻllab, antiteza usuli⁵²dan oʻrinli foydalangan. She’rda fikrlarning bir necha obrazlar vositasida berilishi ham oʻziga xoslik kasb etgan. Darhaqiqat, “poetik nutqda fikr baʼzan bitta gap bilan, baʼzan esa butun tekst bilan ham ifodalanadi. Butun tekst bilan bir fikr bayon etilganda qator – qator obrazli ifodalarni qoʻllash fikrning obrazlilikini kuchaytirib, uning taʼsirchanligini yanada oshiradi.”⁵³

Yuqoridagi she’rda shoir *oq* leksemasi vositasida Oʻzbekistonning mustaqillikdan keyingi davrini taʼriflash uchun uni *buloq*, *daryo*, *tog’* va *dunyoga* qiyoslaydi, yaʼni *oq buloq*, *oq daryo*, *oq tog’* va nihoyat *oq dunyo* deyilganda beixtiyor oʻz mavqeini tiklab olayotgan respublikamiz, ajoyib xalqimiz, yangicha tuzumimiz koʻz oʻngimizda gavdalanadi. *Qora buloq*, *qora daryo*, *qora tog’* va nihoyat *qora dunyo* deyilganda esa respublikamizning yetmish yillik totalitar tuzum davridagi hayoti, xalqimizning nochor turmushi, eski maʼmuriy buyruqbozlik tuzumi haqidagi obrazli tasavvur koʻz oldimizga keladi. Oxirgi toʻrt misrada *oq* va *qora* leksemalari *dunyo* va *shom* soʻzlariga birikib, ikki xil majoziy maʼno ifodalagan: a) *oq dunyo* deyilganda shoir kunduz kunga nisbatan bu soʻzni koʻchma maʼnoda qoʻllagan; b) bu leksemalarning obrazi, okkazional semalarni ifodalashi oʻtmish davri va hozirgi davrni qiyoslash uchun ham xizmat qilgan. Bu oʻrinda yana bir holatni taʼkidlash oʻrinlidir: *oq* leksemasi *buloq*, *tog’*, *daryo*, *dunyo* soʻzlariga birikib kelganida ijobiy

⁵² Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti, 2002. 16 –bet; Qoʻngʻurov R. Oʻzbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1977.

111 – bet; Karimov S. Oʻzbek tilining badiiy uslubi. – Samarqand : Zarafshon, 1992. – 140 bet.

⁵³ Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. – Toshkent: Fan, 1990. 56 – 57 – betlar.

emotsional semani ifodalagan bo'lsa, *shom* so'zi bilan birikkanda salbiy emotsional sema ifodalaydi.

Oq sifat leksemasi badiiyatda beg'uborlik, musaffolik, tinchlik ramzi sifatida keng qo'llanadi. Uning kuchaytirma shakli ayniqsa, kuchli uslubiy bo'yoqdorlikka ega bo'lib, she'riyatda ijobiy kayfiyat, toza ruhni uyg'otish uchun faol ahamiyat kasb etadi. Masalan, Hamid Olimjonning "O'rik gullaganda" she'ri fikrimizga yaqqol misol bo'la oladi. *Derazamning oldida bir tup // O'rik oppoq bo'lib gulladi.* Mazkur she'rda muallif oq sifat leksemasini ham qo'llashi mumkin edi. Chunki tabiatshunoslikdan barchamizga yaxshi ma'lum bo'lganidek, erta bahorda barcha o'rik shoxlari oq bo'lib gullaydi. Biroq mazkur misralarda muallif aynan *oppoq* sifat leksemasini tanlaganida ham bir hikmat bor. Ya'ni *oppoq* so'zi bu yerda nafaqat, o'rik gullarining rangini, balki, sof lirik tabiat manzarasini, insonning eng intim, ichkin ruhiyati bilan bog'liq manzaralarni tasvirlashda ham oq sifat leksemasiga qaraganda samaraliroq leksema hisoblanadi. Shu bois ham muallif she'rda aynan oq yoki *pushti* emas, *oppoq* sifat leksemasini tanlagan.

Rang –tus sifatlarining takrori ham she'riyatda uslubiy bo'yoqdorlikni ta'minlab beruvchi eng yaxshi vositalardan biri hisoblanadi. Masalan, *Yog'ib chiqsin shu tun xonangga, // Ko'nglim kabi oq – oppoq qorlar.* (Guljamol Asqarova). Bugungi kun she'riyatida o'ziga xos ovozga ega bo'lgan shoiralardan biri Guljamol Asqarova ijodida rang – tus sifatleri eng ko'p qo'llaniluvchi sifat leksemalar tarkibiga kiradi. Misol uchun uning quyidagi misralarini diqqat bilan ko'zdan kechiraylik: *Yuragimda bo'y ko'rsatmoqda, // Mehringizning oppoq gullari. Menga qaro qoshlaringizda, // Salanglating o'n sakkizta dor. Qo'llarimga olaman sekin, // Alvon rangli qizil dastakni. Ammo tushun, qo'llarimga men, // Ololmayman*

qizil yurakni. Bir yor topsak edik jondan kechgulik// Eng go‘zal, eng oppoq tongdan kechgulik. Bizdan o‘tdi, bariga uzr! Hajringizda to‘ldi qarog‘im. // Men yashil ishq kutgandim sizdan, Xayr endi sariq yaprog‘im! ...O‘lganimda sariq gullarmas, Qizil gullar keltiring menga. ...Uchrashamiz tashlab ketilgan, Sariq gullar mamlakatida.

Yuqorida keltirilgan misollarda rang – tus sifatlarining dennotativ ma’nosidan tashqari konnotativ ma’nosi ham yaqqol bo‘y ko‘rsatib turibdi. Chunonchi, *yashil* sifat leksemasi tiriklikni, hayotni ramziy tasvirlasa (*“yashil ishq”*), *sariq* sifat leksemasi, bil’aks, ayriliqning, firoqning ramziy belgisi sifatida yuzaga chiqmoqda. (*“sariq yaprog‘”, “sariq gullar” kabi*).

Badiiy adabiyotda boshqa rang – tus sifatleri ham keng uslubiy ma’noda qo‘llaniladi. Chunonchi, *qizil* sifat leksemasi xususida ham shuni aytish mumkin. Bu leksema xuddi *qora* va *oq* sifat leksemalari kabi juda ko‘p ramziy ma’nolarda qo‘llanilgan. *Qizil* sifat leksemasi she’riyatda go‘zallik, husn timsoli sifatida keng qo‘llaniladi. Masalan, *Ulda aytadir: bir qizil yanoqqa, // Uchradim tushimda ko‘milgan oqqa // Oqqa ko‘milganda shunchalar go‘zal, Mendan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal* (Cho‘lpon) misralarida *qizil* sifat leksemasi aynan biz yuqorida tilga olgan vazifada qo‘llanilmoqda. Unga ma’nodoshlik vazifasini bajaruvchi *ol* sifat leksemasi,⁵⁴ ayniqsa, she’riyatda eng ko‘p qo‘llanuvchi sifat leksemalardan biri hisoblanadi. Masalan, *Degaylarki, charos –u, ol gilos olmish labingdan rang, // Labing tekka hasad qilgum, gilos birlan uzumdan ham.* (Erkin Vohidov). *Ol* leksemasida *qizil* sifat leksemasiga nisbatan badiiylilik, poetik ta’sirchanlik kuchli bo‘lib, poetik tilning jozibadorligini ta’minlashda bu leksemaning ahamiyati katta. Poetik nutqda *ol* leksemasi *qizil* sifat leksemasiga nisbatan

⁵⁴ Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1974. – 252 bet.

kam qo‘llanadi. Qizil rangni bildirishda qo‘llaniladigan sifat leksemalardan yana *qirmizi*, *alvon* kabi sifat leksemalar ham kuchli badiiyatni ifodalovchi sifat leksemalar tarkibiga kiradi. Shuningdek, she‘riyatda bu rangni ya‘ni qizil rangni ifodalash uchun bir qancha predmet nomlaridan ham foydalanishlik kabi holatlar uchraydi. Masalan, *anor*, *gilos*, *yoqut*, *shafaq* va boshqa tabiat ne‘matlaridan qizil rangni ramziy ifodalash uchun foydalanish mumkin. *Sochilgan sochingday sochilsa siring, // Anor yuzlaringni kimga tutasan?!* (Cho‘lpon).

Keltirilgan misolda *anor* leksemasining belgi ma‘nosida qo‘llanilishi inson yuzi va anorning rangi o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanadi. Shuningdek, bu misolda *anor* leksemasi “rang” semasidan tashqari “go‘zal, suluv” semalarini ham anglatadi. Lekin negadir “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (1981) da *anor* leksemasining ana shunday okkazonal semalarga ega bo‘lishi qayd etilmagan.⁵⁵

Umuman olganda, tilimizda rang –tus bildiruvchi sifat leksemalar har xil so‘zlar bilan birikib, epitet vazifasida kelishi va turli uslubiy maqsadlarda qo‘llanilishi keng tarqalgan. Yuqorida biz tilimizda faol qo‘llaniluvchi rang –tus ifodalashga xizmat qiladigan *qora*, *oq*, *qizil*, *sariq*, *yashil* sifat leksemalarning semantik strukturasi va uslubiy xususiyatlari haqida fikr yuritishga harakat qildik. Kelgusida rang – tus bildiruvchi sifat leksemalarni yaxlit holda uzviy tahlil usulida tadqiq etish o‘zbek tili semasiologiyasi, leksikologiyasi va uslubiyatining ko‘plab dolzarb muammolarini hal etishiga xizmat qiladi.

⁵⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati., ikki tomlik, I tom, M.: 1981. 1- 48 – betlar.

2.2. Badiiy matnda maza – ta'm sifatlariga xos konnotativ ma'nolar

Ma'lumki, o'zbek tilida sifat asosan predmetning belgisini bildiruvchi so'zlar guruhidir. Sifatlar semantik jihatdan shakl, holat, xususiyat, maza – ta'm, hid bildiruvchi guruhlarga tasniflanadi. Sifatlarning mazkur guruhlari ularning denotativ ma'nosiga asoslanadi. Biroq nutqiy qo'llanishda mazkur guruhga kiruvchi sifatlar o'zlarining turli ma'no qirralari bilan so'zlovchiga keng imkoniyat beradi. Buni asosan matn tahlilida kuzatish mumkin. Ilmiy manbalarda so'zning bunday semantik imkoniyatlari konnotativ ma'no sifatida qayd etiladi. "Konnotatsiya" - leksema tarkibidagi uslubiy ma'no qirralaridir. Ular leksemalarni atashdan, nomlashdan tashqari, shaxsiy munosabatlarni ifodalashga yoxud shu leksemalarning qo'llanilishi doirasini belgilashga xizmat qiladi.

Biz quyida maza – ta'm bildiruvchi sifatlarning konnotativ ma'nolari to'g'risida so'z yuritmoqchimiz.

Maza – ta'm bildiruvchi sifatlar shaxsning tashqi ko'rinishiga nisbatan qo'llanilib, o'zining maza – ta'm ma'nosidan uzoqlashadi. Masalan: *Uyimizga shiringina bir qiz kirib keldi.* (So'zlashuv nutqidan).

Ushbu gapdagi *shirin* sifati shaxsning tashqi ko'rinishiga nisbatan qo'llanilib, *chiroyli*, *yoqimtoy* kabi so'zlarning sinonimi sifatida anglashiladi.

Ba'zan maza – ta'm sifatlari so'zlovchining ruhiy holatiga tavsif beruvchi belgi ma'nosida qo'llaniladi: *Achchiq xotiralar uni tinch yashashga qo'ymas edi. Shirin orzular og'ushida qanday uxlab qolganini o'zi ham bilmay qoldi.*

Ushbu gapdagi *achchiq* va *shirin* sifatlari oʻzlari bogʻlanib kelgan *xotiralar* va *orzular* soʻzlarini sifatlab kelgan. Mazkur holda soʻzning maza – taʼm maʼnosi ikkilamchi oʻringa tushib, asosiy birlamchi maʼnosi ruhiy holat ifodasiga ixtisoslashadi.

Ijtimoiy jarayondagi mavhum tushunchalar bilan birga qoʻllanilib, *yaxshi* va *yomon* maʼnolarini ifodalaydi. Masalan: *Haqiqat shu qadar shirinki, totib koʻrging keladi. Shu qadar achchiqki, tilingni kuydiradi.* (Oʻtkir Hoshimov “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”).

Maza – taʼm bildiruvchi *achchiq* sifati predmetning hidini ifodalab, konnotativ xususiyatini namoyon qiladi: *Nim qorongʻu xonasidan chaqaloq choʻqintiriladigan jomda oqava suvining achchiq hidi anqidi.* (G. G. Markes).

Quyida berilgan matnda esa *shirin* soʻzining salbiy baho munosabatini ifodalashga xizmat qilishini kuzatish mumkin. *Shirin* soʻzi lugʻaviy maʼnosiga koʻra maza – taʼmning lazzatli ekanligini bildiruvchi soʻz. Biroq matnda soʻzlovchi talabi bilan u maza – taʼm maʼnosidan butkul uzoqlashadi, boshqa maʼnoni ifodalay boshlaydi.

– *Toshbolta unga ham ikki ogʻiz “shirin” gaplaridan aytmoqchi edi, qizining koʻzlariga koʻzi tushib, shashtidan qaytdi.*

Bu oʻrinda *shirin* soʻzi kesatq maʼnosida qoʻllanganligi sababli salbiy baho munosabatini shakllantirgan. Buni matn qurshovida yanada aniqroq his etish mumkin: - *Nima deding, voy enagʻar! - Sen! – Toshbolta unga ham ikki ogʻiz “shirin” gaplaridan aytmoqchi edi, qizining koʻzlariga koʻzi tushib, shashtidan qaytdi.* (Tohir Malik “Murdalar gapirmaydilar”).

Shunisi xarakterliki, soʻzlashuv nutqida maza – taʼm bildiruvchi sifat leksemalar asosan isteʼmol qilinadigan predmetlar (suv, choy, kofe, taom, shirinliklar kabi) ga nisbatan qoʻllanilsa, poetik nutqda bu holat juda kam uchraydi. Poetik matnlarda maza – taʼm bildiruvchi sifat leksemalar asosan koʻchma maʼnoda qoʻllaniladi, hamda quyidagi okkazional maʼnolarni ifodalaydi:

a) havoning sovuqlik darajasini ifodalaydi: *Izgʻirin tunlarda achchiq qahraton, / Odamlar bu yerda yalang toʻshlarin, Fashist tanklariga qilganlar qalqon* (Erkin Vohidov); *Ufqlarda esa achchiq bir tuman / Mening koʻzlarimga quyardi zahar* (Abdulla Oripov).

b) “yoqimli” semasini ifodalaydi: *Tevarakni, borliqni maʼyus / Shirin mudroq yotarkan bosib...* (M. Ali); *Ertak degani bu - bolaga ermak, Ertak degani bu shirin - aqida* (Abdulla Oripov).

d) shirin leksemasi insonga nisbatan qoʻllanilganda ham “yoqimli” semasini ifodalashga xizmat qiladi: *U chevar qiz, u shirin qiz, / Buni hamma biladi* (Erkin Vohidov).

Umuman olganda, maza – taʼm bildiruvchi sifat leksemalarning har biri oʻziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, toʻplangan materiallar tahlili shuni koʻrsatadiki, leksik – semantik guruhga mansub birgina *shirin* leksemasi koʻchma maʼnolarni, okkazional semalarni ifodalashda keng imkoniyatlarga egadir. Ayniqsa, sheʼriyatda *shirin* sifat leksemasining uslubiy maʼno imkoniyatlari yaqqolroq oʻz aksini topadi.

Demak, yuqoridagi misollarda mualliflar oʻz subyektiv munosabatlaridan, soʻzdan foydalanish mahoratidan kelib chiqib, shirin leksemasini uslubiy vosita sifatida qoʻllaganlar va shu bilan sheʼriy matnlarning taʼsirchanligini taʼminlaganlar. Shirin leksemasi koʻchma, okkazional maʼnoda qoʻllanilgan har bir oʻrinda “yoqimli, sevimli,

ardoqli” semalari bo‘rtib turadi. Bu leksemaning bir o‘rinda yonma – yon takror qo‘llanilishi ma’noni kuchaytirish, ekspressivlikni oshirish uchun xizmat qiladi: *Goh Fuzuliydan g‘azallar o‘qir / Gohi shirin - shirin qilar askiya (Erkin Vohidov); Shirin – shirin o‘ylarin o‘ylab, O‘ltirardi chashma qoshida (Erkin Vohidov); Mendan so‘rab ko‘ring yashash g‘ururin: / Yashamoq shirindir, yashamoq shirin (G‘afur G‘ulom).*

Achchiq leksemasi haqida ham xuddi shu fikrni aytish mumkin. Bu leksema ham matnga bog‘liq holda turli xil okkazional ma’nolarni ifodalashi mumkin:

a) “qayg‘uli, alamli” semalarini ifodalaydi: *O‘tar uning ko‘z oldidan / Elning achchiq turmushi... (Erkin Vohidov); Bu tarix, ayniqsa, shunchalar achchiq / O‘lik vohalarda sho‘rob tuziday (G‘afur G‘ulom); Cho‘g‘dek yonib turibdi hamon / O‘sha achchiq, o‘sha qora g‘am! (Xurshid Davron).*

b) “kishi kayfiyatiga yomon ta’sir qiluvchi, ozor beruvchi” semalarini ifoda etadi: *Quyoshga qilguday achchiq ta’nalar... Do‘stim yer tagidan iymenib boqdi (Ramz Bobojon); Kimga tegar yulduz ko‘zdan otilgan / Achchiq gina, la’natlar-u qarg‘ishlar? (Cho‘lpon).*

d) “ayanchli, kishining rahmini keltiruvchi” semasini ifodalaydi: *Zim – ziyo tun emish: achchiq noladay / Giryona kezarmish mezon shamoli (M. Ali).*

e) “hid” semasini ham bildiradi: *Murg‘ak aqlim yetmasdi aslo.... Achchiq tutun tegdi nafasga... (Erkin Vohidov).*

f) ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi: *Yig'layman ko'zimga kelmaydi namlar / Murg'ak vujudimda faqat zo'r titroq, / Bo'g'zimda alamlar, achchiq alamlar... (Erkin Vohidov).*

Insoniy his – tuyg'ularni, holatlarni kuchli tarzda ifodalash maqsadida ba'zan shirin va achchiq leksemalari bir misra tarkibida yonma – yon qo'llanadi: *Shundan tunlariga hamdam ro'yolar / Shirin muloqotlar, achchiq nidolar... (Muhammad Ali).*

Biz yuqorida she'riy matnlarda shirin va achchiq leksemalarining eng mahsuldor uslubiy vositalardan biri ekanligini ko'zdan kechirdik. Poetik asarlarda maza – ta'm bildiruvchi sho'r, taxir sifat leksemalari ham kam miqdorda bo'lsa-da, uslubiy vosita sifatida qo'llaniladi: *Qismat mayin ichdim – achchiq va taxir / Tuydim ehtirosning samoviy kuchin (Abdulla Oripov); Ozodlik / Uyqusiz ko'zingga to'lgan / Terday achchiq qonli va sho'r yoshlardan / Kim yuz o'girar... (Xurshid Davron).*

Sho'r leksemasi tilimizda ayrim frazemalar tarkibida ham uchraydi: *Sho'rlik boyvachchalar, toleingiz sho'r / Afsuski, tarixdan tonib bo'lmasa! ... (G'afur G'ulom).*

Tilimizda tolei sho'r frazemasining sho'r peshona, peshonasi sho'r kabi variantlari ham mavjud bo'lib, ular ham poetik matnlarda uslubiy maqsadlar uchun qo'llanadi.

Ma'lumki, so'zlashuv nutqida maza – ta'mni ifodalash uchun novvot, asal kabi ot turkumiga oid so'zlardan ham foydalaniladi. Bunda tasvirlanayotgan predmetlar (shakar, novvot, asal kabilar) ning shirinlik, achchiqlik (zahar, kakra kabi), sho'rlik (namakob kabi) xususiyatiga ega ekanligiga asoslaniladi. Poetik matnlarda ham xuddi shunday holat kuzatiladi. Masalan: *Qantak o'rik o'tim bor // Ko'p mazali totim bor. (Erkin Vohidov). Taroziyon*

amakisi / Olar ekan paxtani / Chevar qiz deb, shirin qiz deb / Asal qiz deb maqtadi. (Erkin Vohidov); Kuy, shakar labdin ayurma, Sen meni yig'latmagil (Erkin Vohidov).

Keltirilgan misollarda ishtirok etgan qantak, asal, shaker soʻzlari “shirin” maʼnosining turli darajalarini ifodalash uchun qoʻllangan. Ulardan dastlabki misoldagi qantak soʻzi predmetning belgisini koʻrsatayotgan boʻlsa, keyingi misoldagi asal soʻzida “yoqimli” semasi boʻrtib turadi, oxirgi misolda esa shakar soʻzi insonga nisbatan qoʻllanilib, “shirin, totli” semasini ifodalashga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, predmetning maza – taʼmini ifodalash uchun xizmat qiladigan sifat leksemalar poetik nutqda oʻzlarining koʻproq koʻchma maʼnoda qoʻllanilishi, okkazional semalarni ifodalashi, muhim uslubiy vosita ekanligi bilan xarakterlanadi.

Bob bo'yicha xulosa

Mazkur bob bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Poetik matnlarda sifat leksemalar har xil so'zlar bilan birikib, epitet vazifasida keladi. *Moviy ufq, moviy shamol, yam – yashil olam, yashil fazo, moviy xayol, moviy yuksaklik, yashil do'st, yashil is, yashil libos, moviy qo'shiq, majruh ko'ngil, murga'ak dil, gulgun chehra, makkor ko'z, shirin xayol, pok tuyg'u* kabi birikmalarda sifatlar muhim tasviriy vosita bo'lib qolmasdan, balki poetik tafakkur elementiga, estetik hodisaga aylanib ketadi, hamda nutqni bezash doirasidan chiqib, his – tuyg'uni, fikrni obrazli ifodalash vositasi darajasiga ko'tariladi.

2. Poetik nutqda rang bildiruvchi sifat leksemalarning uslubiy maqsadlarda qo'llanilishi ma'lum darajada muallif yashab turgan davrda qaysi tuzumning hukmron bo'lganligi, uning dunyoqarashi, qaysi siyosat tarafdorligi ekanligi bilan ham bog'liq.

3. Sifatlar tadqiqotchilar tomonidan semantik jihatdan 4 – 9 guruhga ajratib o'rganilmoqda. Olimlarning bunday tasniflari orasida taniqli o'zbek olimasi M. Sodiqova tomonidan ishlab chiqilgan tasnif e'tiborga molik. Bu tasnifga binoan sifatlar semantik jihatdan to'qqiz guruhga ajratiladi. Har bir guruhga oid sifatlar ham o'z navbatida ichki leksik – semantik guruhlariga bo'linadi. Jumladan, holat bildiruvchi sifat leksemalar tabiiy holat belgilarini ifodalovchi LSG, nuqsoniy belgilarni ifodalovchi LSG, ruhiy holat ifodalovchi LSG, kishining hayotiy holatini ifodalovchi LSG lari singari o'nga yaqin kichik – kichik guruhlariga bo'linadi. Rang bildiruvchi sifat leksemalarni *oq, qora, ko'k, qizil, sariq, zangori, yashil, bo'z, malla, moviy, pushti, pistoqi, qirmizi, qo'ng'ir* kabi

asosiy (axromatik) rang bildiruvchi leksemalardan tashqari *saman*, *jiyron*, *to'riq*, *chavkar*, *chipor*, *targ'il* singari hayvon tuslarini ifodalovchi LSG lar qatoriga ajratish mumkin.

4. O'zbek tilida yana sifat leksemalar orasida maza – ta'm ma'nosini ifodalovchi sifat leksemalar ham mavjudki, ular badiiy matnda keng uslubiy imkoniyatlarini namoyish qiladi. Ayniqsa, *shirin*, *achchiq*, *sho'r*, *talx* kabi maza – ta'm sifat leksemalari badiiy matnda eng ko'p qo'llaniluvchi uslubiy sifat leksemalar hisoblanadi.

III BOB. SIFATLARNING ICHKI MA'NO GURUHLARIGA XOS SEMANTIK – USLUBIY XUSUSIYATLAR

3.1. Holat bildiruvchi sifat leksemalar

O'zbek tilida holat bildiruvchi sifat leksemalarni quyidagi 9 ta ichki LSG larga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Xursandlik holatini ifodalovchi sifat leksemalar: *xursand*, *shod*, *xurram*, *gulgun*, *xushnud*, *quvnoq*, *xushchaqchaq* kabi.

2. Xafalik holatini bildiruvchi sifat leksemalar: *ma'yus*, *g'ash*, *xunibiyron*, *giryon*, *g'amnok*, *diltang*, *parishon* kabi.

3. G'azabli holatni ifodalovchi sifat leksemalar: *g'azabnok*, *kinli*, *g'azabli*, *darg'azab* kabi.

4. Ijobiylik yoki salbiylik semasi to'g'ridan – to'g'ri ifodalanmaydigan holat bildiruvchi sifat leksemalar: *sog'*, *sergak*, *xushyor*, *lol*, *mudroq*, *loqayd* kabi.

5. Kishining hayotiy ahvoli, holatini ifodalovchi sifat leksemalar: *kambag'al*, *faqir*, *qashshoq*, *bechora*, *gado*, *bechorahol*, *yo'qsil*, *misikin*, *yetim*, *mushfiq*, *musofir*, *boy*, *badavlat*, *davlatmand*, *zangin* kabi.

6. Predmetning harorat belgisi holatini bildiruvchi sifat leksemalar: *Issiq*, *sovuq*, *salqin*, *iliq*, *muzdek*, *namxush*, *otashnok* kabi.

7. Tozalik - ifloslik holatlarini ifodalovchi sifat leksemalar: *toza*, *iflos*, *irkit*, *loyqa*, *musaffo*, *beg'ubor*, *shaffof*, *pok*, *pokiza* kabi.

8. Predmetning yangilik – eskilik holatlarini ifodalovchi sifat leksemalar: *yangi*, *eski*, *ko'hna*, *churuk*, *juldur*, *uvada*, *eski - tuski*, *ohorli*, *toza* kabi.

9. Tinch va notinchlik holatlarini ifodalovchi sifat leksemalar: *tinch, notinch, osoyishta, jim, bezovta, betoqat, betinch, halak, besaranjom, alg'ov – dalg'ov, to's – to'polon, sokin, sokit, osuda, bezovta, xotirjam, tek* kabi.

Endi ularning har biriga alohida - alohida to'xtalib o'tsak.

Xursandlik holatini ifodalovchi sifat leksemalar kishi ruhiyatidagi davriy yoki oniy lahzalarni, muayyan bir harakat yoki holatdan mamnunlikni turli shakllarda aks ettiradi. Bunday sifatlarning barchasi semantik jihatdan bir nuqtaga, LSG ga birlashadi: *xursand, mamnun, xushhol, xushnud, xurram, quvnoq, shodmon, shod, xushchaqchaq, masrur* kabi sifat leksemalar shular jumlasidandir. Xursandlik holatini ifodalovchi bunday leksemalar orasida “*xursand*” sifat leksemasi uslubiy jihatdan betaraf bo'lib, yadro (dominant) leksema sanaladi, uning dominantlik xususiyati “O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati” da ham ta'kidlab ko'rsatilgan.⁵⁶ Bu leksema og'zaki va yozma nutqda, adabiy tilning turli vazifaviy uslublarida keng qo'llaniladi: *Mendan xursand, hamma ko'ngildan / Agronom qiz, – deydi barchasi* (Usmon Nosir).

Ma'lumki, poetik nutqda inson kayfiyatining, ruhiy holatining yaxshi ekanligini ko'rsatuvchi *mamnun, xushhol* kabi sifat leksemalar ham faol qo'llanishdadir: *Manglayin o'parlar, o'parlar poyin / U esa kuladi mamnun va xushhol* (Muhammad Ali); *Shovilladi tun bo'yi shamol, Qaldirqlar ko'chdi larzakor, Shivirlading yonimda xushhol: / “Yana keldi, do'stginam, bahor”*. (Abdulla Oripov).

Keltirilgan dastlabki misolda inson ruhiy holatini ifodalovchi ikki sifat leksema qatnashgan bo'lib, ular mazmunan

⁵⁶ Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1974. – 308 bet.

bir narsadan mamunlik, shodlik ma'nolarini ifodalab kelmoqda. Lekin *xushhol* so'zida belgi darajasi *mamnun* so'ziga nisbatan birmuncha kuchliroq shaklda ifodalangan.

Poetik nutqda kishining xursandlik ruhiy holatini ifodalashda *xushnud*, *chog'* so'zlari ham faol qo'llanadi: *Barcha xushnud, dillar chog' edi / Tovus kabi aylab xiromon, / Raqsga tushdi bir go'zal jonon* (Erkin Vohidov).

Shuningdek, to'plangan misollar *shod*, *xurram*, *quvnoq*, *xushchaqchaq*, *masrur* kabi ko'pgina sifat leksemalarning xursandlik ruhiy holatini turli darajada ifodalashga xizmat qilishini ko'rsatadi. *Shod* va *xurram* so'zlarining yonma – yon kelishi esa ma'noni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi: *Bu suv qishloqning butun dard – falokatini, butun qashshoqligini yuvib ketayotganday hamma shod – xurram, hamma ahil, orada o'tgan past – baland gaplar unutilgan edi.* (Abdulla Qahhor).

Shuni ta'kidlash lozimki, *shod* so'ziga nisbatan *quvnoq* so'zida ijobiy holat semasi ancha kuchli, *quvnoq* so'zining ma'no ko'lami xursandlikni ifodalovchi boshqa sifat leksemalarga nisbatan ancha kengdir. Qayd etib o'tilgan ko'pgina sifat leksemalarda kishi ruhiyatidagi xursandlikning vaqt bilan bog'liq ma'lum bir holatlari ifodalansa, *quvnoq* leksemasida davomiylik mavjudligi seziladi, ya'ni xafagarchilikdan uzoq, doimiy ravishda xursand bo'lib yuruvchi semalari anglashiladi: *O'zbek oyimniki to'g'ri, - dedi Mohira oyim, - Zaynab quvnoq, Kumush esa mening ko'zimga ham serfikrga o'xshab ko'rinadirlar.* (Abdulla Qodiriy).

Poetik nutqda ba'zan xursandlik ruhiy holatini ifodalovchi sifat leksemalar faqat kishilarga nisbatan emas, balki predmet va mavhum tushunchalarni ifodalovchi otlarga nisbatan qo'llanilishi

kuzatiladi: *Qarangki, quyosh ham shodmon va gulgun / Mehnatkash yigitday kulib turibdi* (Erkin Vohidov).

Ba'zan poetik nutqda xursandlik ruhiy holati insonga tegishli bo'lgan narsa va predmetlarni sifatlash orqali ham ifodalanadi: *Rubobim tori ikkidur: / Biri quvnoq, biri mahzun. / Ki baytim satri ikkidur: / Biri dilxush, biri dilxun.* (Erkin Vohidov).

Tilimizda xafalik holatini ifodalovchi sifat leksemalar ham keng tarqalgan bo'lib, *ma'yus, g'ash, xunibiyron, giryon, g'amnok, diltang, parishon, g'amgin, dilgir, xafa, xomush* kabi sifat leksemalar shular jumlasidandir. Bu LSG tarkibiga kiruvchi leksemalarning qo'llanilishida farqli holatlar ham ko'zga tashlanadi. Jumladan, *xafa, g'amgin, dilgir, xomush* sifat leksemalarning belgini ifodalash darajasi bir xil bo'lsa, *xafa, g'amgin, xomush* so'zlari kishining yuz – ko'zidan ifodalanib, turadigan g'amginlik holatini aks ettiradi: *Nimadan ko'ngling g'ash, nimada darding / Hoy, kichik qishloqning jajji bolasi?* (Muhammad Ali).

Ma'lumki, ko'z yoshi to'kish insonning ortiq darajada xafa ekanligini to'g'ridan to'g'ri ko'rsatadigan harakatdir. Insonning ana shu ko'z yoshi to'kish, yig'lash holati tilimizda *giryon* sifat leksemasi orqali ham ifodalanadi. Fors – tojikcha bu leksema biroz eskirgan, arxaik xarakterga ega bo'lib,⁵⁷ asosan poetik nutqqa xoslangandir: *Men uning ortidan yugurdim giryon / Nogoh ayriliqdan ko'zlarim yoshlab* (Abdulla Oripov).

Shuningdek, poetik nutqda kishining nihoyatda qattiq azob chekkanligi, qattiq ruhiy iztirobda ekanligi *xunibiyron* sifat leksemasi orqali ham ifodalanadi: *Nega qoshlari chimirilgan? / Nega yig'lar u xunibiyron?* (Usmon Nosir).

⁵⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati, ikki tomlik, 1 – tom, M.: 1981. 192 – bet.

Poetik nutqda *parishon*, *parishonhol* soʻzlari ham kishining ruhiy holatini koʻrsatish maqsadida qoʻllanadi. *Parishon* soʻzi aslida xayolga nisbatan ishlatilib, har tomonga sochilgan, toʻzgʻigan, tartibsiz, tarqoq kabi maʼnolarni bildiradi va bu leksemani ogʻzaki hamda yozma nutqda qoʻllash orqali kishining ruhiy qiyofasi yoritib beriladi: *Tushim qursin, koʻnglim parishon / Xayolimda sen yashab ketding / Yuragimga ishq tashlab ketding / Tushim qursin, koʻnglim parishon* (Usmon Nosir).

Gʻazabli holatni ifodalovchi sifat leksemalar orqali insonning tevarak – atrofdagi voqea – hodisalar, predmetlar, odamlar xatti - harakatidan noroziligi tufayli yuzaga kelgan kuchli ruhiy holati ifodalanadi: *Baʼzan yogʻayotgan oʻqlar bamisol / Dudoqlaridan kinli soʻzlar uchgan on / Oʻylaysan, yo falak, bu zoti ayol / Qanday mehribon – u, qanday beomon !* (Muhammad Ali).

Keltirilgan misoldagi *kin* (*kinli*) soʻzi norozilik, gina maʼnolaridan tashqari matnga bogʻliq holda gʻazab maʼno semasini ham bildirishi mumkin.

Tilimizda kishining yashash darajasi, holatini koʻrsatuvchi *kambagʻal*, *faqir*, *qashshoq*, *bechora*, *gado*, *bechorahol*, *yoʻqsil*, *misikin*, *yetim*, *mushfiq*, *musofir*, *boy*, *badavlat*, *davlatmand*, *zangin* kabi bir qator sifat leksemalar mavjud. Maʼlumki, kishilarning jamiyat boyligidan oladigan ulushi yashash uchun zarur boʻlgan noz – neʼmatlardan bahramand boʻlish darajasi ularning turmushi har xil boʻlishiga olib keladi. Insonning moddiy boyliklardan qanchalik bahramand boʻlishi uning hayotiy ahvolini koʻrsatuvchi asosiy mezon hisoblanadi. Bu holat kishining hayotiy ahvolini ifodalovchi sifatlar LSG I yordamida ifodalanadi. Baʼzan kishining hayotiy ahvoli toʻgʻridan toʻgʻri emas, balki narsa va predmetlarni tasvirlash orqali ham koʻrsatilishi mumkin: *Yurgil*

erkam! Shahar bozori / Noz – ne'matga to'lgani haqqi / Noz – ne'matga to'lgani haqqi / Sen kirganda boy do'konlarning / Quchoq ochib turgani haqqi... (Muhammad Ali).

Keltirilgan misolda shoir boy do'konni tasvirlash orqali kishilarning yashash darajasi yaxshi ekanligini ta'kidlashga intilgan edi. Ba'zan boylik darajasini ko'rsatuvchi sifat leksemalar muallif istagiga bog'liq holda poetik nutqda tasvirlanayotgan kishiga nisbatan ham qo'llanadi. Masalan: *Bechora / G'arib bo'lib / Yakka / Ul qolgan... / Qarol yurib / Ko'p ezilgan / Sag'ir / Yosh umr...* (Usmon Nosir).

Bu misolda insonning moddiy jihatdan qiynalib, muhtojlikda kun ko'rishi, chorasizlikdan boshi qotib qolgan holati aniq o'z aksini topgan. Kishining turmush darajasi juda yomonligi, kambag'allik bilan bog'liq holatlarni ifodalashga shoirning ijobiy munosabati ham bo'rtib turadi. Fikrimizni quyidagi she'riy parchada qo'llangan *mushfiq* sifat leksemasi to'la tasdiqlaydi: *Mushfiq ona ko'z oldida / O'sib borar farzandi...* (Erkin Vohidov).

Bundan ko'rinadiki, badiiy nutqda muallifning o'zi bayon qilayotgan fikrlariga, tasvirlanayotgan shaxsga bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabati holat bildiruvchi sifat leksemalar yordamida ifodalanadi.

Tilimizda faol qo'llanuvchi *bechora*, *boyaqish*, *ojiz*, *notavon*, *sho'rlik*, *aftoda* kabi sifat leksemalar kishining nochor ahvolda qolganligi, unga nisbatan achinish uyg'otish holatlarini ifodalashga vosita bo'ladi: *Oqsoqol aftodahol, yetmas o'ylab o'yiga / Ko'ngli vayron, qaddi dol, qarab bo'lmas ro'yiga....* (T. Sulaymon). *Tobakay bechora olam ko'kida / Qontalash balqadi oylar, oftoblar!...* (G'afur G'ulom).

Keltirilgan misollarda kishining achinarli holati *aftodahol*, *bechora* singari sifat leksemalar orqali ifodalangan bo‘lib, bunday holat *sho‘rlik* yanada kuchliroq tarzda o‘z ifodasini topgan: *Arzimas narsadan chiqarib g‘avg‘o*, / *Sho‘rlik o‘zbek xalqin “kelajaklari”...* (Azim Suyun).

Shuni ham inobatga olish lozimki, *sho‘rlik* sifat leksemasi kishining hayotiy ahvolini ifodalashi nuqtayi – nazaridan *bechora*, *boyaqish*, *o‘ksiz*, *notavon*, *ojiz*, *aftoda* kabi so‘zlar bilan ma‘nodosh sanaladi, bu holat sinonimlar lug‘atida ham o‘z aksini topgan.⁵⁸ Lekin *sho‘rlik* leksemasida belgi darajasi ancha kuchli. Quyidagi misolda *sho‘rlik* sifat leksemasining ma‘no ko‘lami yuqoridagilarga nisbatan ma‘lum darajada torayganligini, belgi semasining yanada konkretlashgani seziladi: *Holdan ketib sho‘rlik qiz tuni* / *Yarim karaxt mudrar*, *yarim och* / *Usti – boshi yirtiq – yalang‘och* / *Kun kechirar*, *ishlar tinmayin* (Hamid Olimjon).

Bu o‘rinda *sho‘rlik* sifat leksemasining yakka shaxsga nisbatan qo‘llanilishi unda belgi ma‘nosining yanada kuchayishini ta‘minlagan. Badiiy nutqda, ayniqsa, poetik matnlarda ba‘zan *sho‘rlik* leksemasi yuqorida qayd etilgan semalardan tashqari omadsizlik, baxtsizlik, tolei pastlik kabi semalarni ham bildirishga xizmat qiladi: *Bosgan uyni solgan bu sho‘rlik usta* / *Qah – qah urib shu kun ayrildi hushdan* (Shukrullo).

Tilimizda *faqir* so‘zi ham kishining hayotiy holatini ko‘rsatuvchi sifat leksemalardan biri sanaladi, u moddiy jihatdan nochor, kambag‘al ma‘nolarini ifodalaydi: *Hamma har tarafga yelibdi shu on* / *Olib kelishibdi: bir odam, faqir* / *Faqir, bechorahol, ozg‘in va nimjon...* (Muhammad Ali).

⁵⁸ Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1974. 60 – 61 – betlar.

Ko‘rinadiki, bu o‘rinda kishining hayotiy ahvoli, holati uning o‘zini tutishi, tashqi ko‘rinishi, kiyinishini tasvirlash orqali ochib beriladi. Poetik nutqda bu kabi holatlarni ifodalashda *xor, xor – zor, yupun, darbadar, yarimjon, och – yalang‘och, gado, yetim* kabi sifat leksemalari keng qo‘llanadi. *Bunda ekan qancha xor – zor / Mendek yupun, darbadar* (Erkin Vohidov).

Keltirilgan misolda *xor – zor, yupun, darbadar* so‘zlari yordamida kishining hayotda juda kam xo‘rlanishi, usti – boshi juda ham xaroblighi, muhtojlik tufayli elma – el, eshikma – eshik yurib kambag‘allikda kun kechirishi ifodalab berilgan. Kishining og‘ir ahvolda yashashi, ota – onasidan ajrab qolib qiynalib hayot kechirishi unga nisbatan *yetim* sifat leksemasini qo‘llash orqali ochib beriladi: - *Tur, dedilar, tur, yetimchazot! / Ilojim yo‘q, turaman birpas.* (Usmon Nosir).

Poetik nutqda kishi hayotining o‘taketgan darajada og‘irligi, uning o‘ta kambag‘alligi *yo‘qsil, qashshoq* sifat leksemalarini qo‘llash orqali ham ifodalanadi: *Kelma, kelma... men faqir... bechora... yo‘qsil bir kishi; Men kabi yo‘qsil kishining yog‘dularida ne ishi?..* (Cho‘lpon).

Poetik nutqda holat bildiruvchi bu kabi sifat leksemalar tilimizda eng faol sifat leksemalardan hisoblanadi. Ularning badiiy matndagi tadqiqi ham ayni shu jihatdan tilshunoslik nuqtayi – nazaridan g‘oyat ahamiyatlidir. Quyida biz mashhur o‘zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asaridan olingan kichik bir parchani sifat leksemalarining uslubiy qo‘llanilishi jihatidan tahlil qilishga harakat qildik.

Ma‘lumki, o‘zbek tilida sifatlar belgi – xususiyatni ifodalash vazifasini bajaradi. Matnda ayni shu vazifani ado etayotgan sifatlar bir paytning o‘zida

ikki xil ma'no – denotativ va konnotativ ma'no kasb etadi. Denotativ ma'no sifat leksemalarning atash ma'nosi bo'lib, ularning bir qancha leksik-semantik guruhlariga tasniflanishida ham yetakchi mezon sifatida qaraladi. Konnotativ ma'no esa o'zida sifat leksemalarining uslubiy qirralarini namoyon etadi. Konnotativ ma'no so'zning denotativ ma'nosidan bir oz chekinishini talab qiladi. Xususan, badiiy asarlarda belgi bildiruvchi sifatlar turfa xil ma'no tovlanishlari bilan morfologik uslubiyatga yaqqol misol bo'la oladi.

Milliy romanchiligimizning asoschisi Abdulla Qodiriy nafaqat adabiyot ilmini, balki adabiy til ilmini ham nozik tushungan, so'zga boy, mohir so'zshunos ijodkor edi. Uning “O'tkan kunlar” romanida sifat leksemalar yozuvchi badiiy niyatini aks ettirishda nihoyatda o'rinli qo'llanilgani bilan diqqatga sazovor. Asarning eng muhim yutuqlaridan biri ham sifat leksemalarda denotativ ma'no muallif nazarda tutgan konnotativ ma'noni to'sib qololmaganligidadir. Quyida biz sifat leksemalarining ijobiy va salbiy baho anglatuvchi uslubiy ma'nolari to'g'risida so'z yuritmoqchimiz.

Romanda qahramonlar tabiatini, tashqi ko'rinishini tasvirlashda foydalanilgan rang – tus sifatlari o'ziga xos konnotativ ma'nosiga ega. Masalan, quyidagi matnga diqqatimizni qaratsak: “*Saroyning to'rida boshqalarga qarag'anda ko'rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to'shalgani holda bu hujrada qip – qizil gilam, uttalarda bo'z ko'rpalar ko'rilgan bo'lsa, munda ipak va adras ko'rpalar, narigilarda qora charog' sasig'anda, bu hujrada sham yonadir, o'zga hujralarda yengil tabi'atlik, serchaqchaq kishilar bo'lganida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda*”.

Murakkab strukturali ushbu matnning o'zida 7 ta sifat leksema ishtirok etgan bo'lib, ularning 3 tasi (“*ko'rkamrak*”, “*qip-qizil*”, “*boshqacha*” sifat leksemalari) ijobiy ma'noni, qolgan 4 tasi (“*o'zga*”, “*yengil*”, “*serchaqchaq*”, “*qora*” kabi sifat leksemalar) salbiy ma'noni ifodalovchi

semantik – uslubiy xususiyatga ega. Endi ularga alohida – alohida to‘xtalib o‘tsak, “ko‘rkamrak” sifat leksemasi sifatning qiyosiy daraja shaklida bo‘lib, chiroyli neytral sifat leksemasiga qaraganda ko‘proq uslubiy bo‘yoqdorlikka ega. Yuqoridagi matnda ayni so‘z hujraga nisbatan qo‘llanilayotgani va bu “*hujraning egasi boshqacha yaratilishda*” ekanligini inobatga olsak, bu so‘z o‘z ma‘nosidan tashqari hujra egasiga nisbatan ijobiy taassurot uyg‘otishga ham xizmat qilmoqda, xuddi shuningdek, “*qip - qizil*” va “*boshqacha*” sifat leksemalari ham matnda yuqorida tilga olingan vazifani amalga oshirgan. Bil’aks, “*qora charog’*”, “*o‘zga hujra*”, “*yengil tabi‘atlik*”, “*serchaqchaq kishilar*” birikmalaridagi sifat leksemalari “*ko‘rkamrak*”, “*qip - qizil*”, “*boshqacha*” sifat leksemalariga zid ravishda salbiy ekspressivlikka moyilroqdir. Asarda bunday tasviriy o‘rinlarda sifat so‘zlar subyektiv hodisa sifatida ko‘proq namoyon bo‘ladi. Chunki muayyan so‘z asarda, albatta, qandaydir shaxs, hodisa, narsa – buyumga nisbatan munosabat bildirgandagina o‘zining uslubiy xossasiga ega bo‘ladi. Fikrimizni asoslash uchun yana xuddi o‘sha asarga murojaat qilamiz: “*Og‘ir tabi‘atlik, ulug‘ gavdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit*“. Gapda qo‘llanilgan sifat leksemalarni ayrim – ayrim tahlilga tortib ko‘ramiz:

Og‘ir sifat leksemasi, sifatlarning vazn- og‘irlik bildiruvchi leksik-semantik guruhiga mansub so‘z hisoblanadi. Biz namunada keltirgan gapda bu so‘z ko‘chma ma‘noda qo‘llanilgan bo‘lib, vazmin, bosiq sifat leksemalariga ma‘nan yaqin turadi. Biroq ayni paytda bu so‘zning o‘z ma‘nosidan uzoqlashib, bundan oldingi matnda qo‘llanilgan yengil sifat leksemasiga zid qo‘yilishi mazkur so‘zning okkazonal ma‘no anglatayotganligi va sifatlarning usluban rang- barangligiga misol bo‘la oladi.

Ulug‘ sifat leksemasi haqida ham xuddi shu fikrlarni aytishimiz mumkin. Bu yerda yozuvchi katta neytral sifat leksemasini qo‘llashi ham mumkin edi, biroq unda badiiy matn o‘zining uslubiy qimmatini, badiiy

ta'sirchanligini yo'qotgan bo'lar edi. Xuddi shuning uchun ham tilda so'zlarning okkazional ma'noda qo'llanilishlari badiiy uslubda faol amalga oshadi. Matnda izchillik bilan foydalanilgan *ulug', ko'rkam, oq, kelishgan* sifat leksemalari hamkorlikda ijobiy semaga, ya'ni hujradagi yigitning tashqi tasviri va hujra tasviri hamohangligiga mos ravishda qo'llangan. Bu yerda faqat *qora* leksemasi biroz o'ylantiradigan. Chunki biz namunada keltirgan birinchi gapda bu so'z salbiy sema ifodalash uchun xizmat qilgan edi. Endi esa aksincha. Buni matndagi har ikkala birikmani qiyoslab ko'rganimizda yanada aniqroq ko'rishimiz mumkin bo'ladi: "*qora charog' sasishi*" kishida qanday yoqimsiz kayfiyatni uyg'otsa, "*qora ko'z, qora qosh*" birikmalari shunchalik iliq taassurot paydo qiladi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, muayyan sifat leksemasi bir paytning o'zida ham ijobiy, ham salbiy konnotativ ma'no hosil qila oladi. Ayni paytda kontekstda faqat bir jihatni yo ijobiylikni, yo salbiylikni ifodalashi mumkin. So'zning uslubiy ma'no qirrasi faqatma-faqat kontekstdagina ayonlashadi.

Har qanday sifat leksemalari badiiy matndan tashqari oddiy so'zlashuv nutqida ham faol okkazional ma'no kasb etishi mumkin. Hatto ba'zi o'rinlarda bu ma'no sifatlarning denotativ ma'no ifodalashidan ham ko'ra ko'proq ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, maza – ta'm ma'nosida qo'llanuvchi shirin, achchiq leksemalari oddiy so'zlashuv nutqida ko'proq ko'chma ma'noda qo'llanilib, kishidagi turli xil ruhiy holatlar yoki tashqi ko'rinish tasvirlarida keng foydalaniladi. Masalan, Kecha Muslimaxonning shiringina qizchasini erkalab turgan edi, bugun esa bu ahvol. (So'zlashuv nutqidan).

Mazkur gapda *shiringina* sifat leksemasining maza – ta'm bildiruvchi denotativ ma'nosi ikkilamchi o'ringa tushib, tashqi ko'rinish tasviriga nisbatan chiroyli, yoqimtoy ma'nosi birlamchi o'ringa chiqqan. So'zlashuv nutqidan bunga o'xshash misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Umuman olganda, okkazional semali sifat leksemalarning tildagi ahamiyati shundan iboratki, ular nutq jarayonida, jumladan badiiy matnda uslubiy bo‘yoqdorlik va emotsionallikni oshirishga ortiq darajada xizmat qiladi. Shu jihatdan ular matnda va og‘zaki nutqda keng qo‘llanilish doirasiga ega hisoblanadi. Til taraqqiyoti va ongdagi evrilishlar natijasida muayyan sifat leksemalarining okkazional ma’no qutblari ham o‘zgarishlarga uchrab turadi. Bu esa uslubshunoslikda o‘rganilishi zarur bo‘lgan yangi – yangi ilm ufqlarini ochadi, deb komil ishonch bilan ayta olamiz.

3.2. Ko‘lam me‘yorini ifodalovchi sifat leksemalar

Tilimizda predmetning hajmi, o‘lchovi, miqdori kabi ko‘lam me‘yorini anglatuvchi belgilari *keng, tor, qalin, yupqa, chuqur, sayoz, uzoq, yaqin* singari bir qator sifat leksemalar orqali ifodalanadi. Sifatlarning bu LSGini nomlash va tavsiflash uzoq tarixga ega. Jumladan, A. N. Kononov 1948 – yilda nashr etilgan etilgan «Грамматика узбекского языка» asarida sifat leksemalarni beshta LSG ga ajratgan va shulardan ikkinchisi “makon hamda zamon belgi va munosabatni bildiruvchilar” deb nomlangan edi. Shu kabi ta‘rif va misollar uning 1960 – yilda nashr etilgan kitobida takrorlanib, *to‘g‘ri, o‘ng, chap, kichik, buyuk, uzoq, uzun, bo‘sh, chuqur, tor, keng, katta* kabi misollar keltirilgan.⁵⁹

S. Mutallibov ham o‘z asarida sifat leksemalarni olti LSG ga ajratib tahlil qilgan. Muallif sifatlarning boshqa turlari qatorida hajm bildiruvchi (*katta, kichik, ulug‘, butun, yarim* kabi), forma bildiruvchi (*yassi, pakana, egri, to‘g‘ri* kabi), masofa bildiruvchi (*yaqin, yiroq, uzoq, yovuq* kabi) LSG larni ajratib ko‘rsatadi.⁶⁰ Olimning bu tasnifidagi eng diqqatga sazovor tomon masofa sifatlarning alohida LSG sifatida ajratib ko‘rsatilishidir. Ammo Solih Mutallibov masofa sifatlari deyilganda faqat “gorizontal yo‘nalishdagi ikki nuqta oralig‘i” tushunchasini anglatuvchi sifat leksemalarni inobatga olgan, xolos. Natijada boshqacha yo‘nalishdagi nuqtalar oralig‘ini anglatuvchi sifat leksemalar olim e‘tiboridan chetda qolgan ko‘rinadi.

U. Tursunov, J. Muxtorovlarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” asarida bunday sifat leksemalar “shakl, hajmni bildiruvchilar” deb

⁵⁹ Кононов А. Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М. – Л.: изд-во АН, 1960. – 447 с.

⁶⁰ Mutallibov S.M. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk (XI asr yozma yodgorliklari asosida). – Toshkent: O‘zFA nashriyoti, 1959. – 240 bet.

nomlangan va unga *keng, katta* sifat leksemalari misol qilib keltirilgan. Shu darslikning qayta ishlangan, to'ldirilgan uchinchi nashrida sifat leksemalar yeti LSG ga ajratib tahlil qilingan bo'lib, shundan 3 – LSG “narsaning shakl – ko‘rinishini, hajm – o‘lchovini bildiruvchi sifatlar” deb nomlangan, hamda *kalta, oriql, egri, qiyshiq, yassi, katta, kichik, keng, tor, og‘ir, uzun* kabi sifat leksemalar misol qilib keltirilgan.⁶¹ Ko‘rinadiki, bunda LSGning nomlanishi juda keng (shakl, ko‘rinish, hajm, o‘lchov) bo‘lsa-da, misollar faqat mazkur LSG ga xos sifat leksemalarning ba’zi ko‘rinishlarini qamrab oladi, xolos.

E. Fozilov o‘z asarida “predmetning payt – makonga nisbatan sifatini bildiruvchi” sifat leksemalar guruhini ajratadi. Bu asarda ham makon anglatuvchi sifatlarga misollar keltirilgan. Masalaning ijobiy tomoni shunda ko‘rinadiki, asarda keltirilgan misollar “makon” ning bir necha turi (uzunligi, eni, balandligi, og‘irligi kabi)ni aks ettiradi.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (1966) asarida hajm bildiruvchi sifatlar predmetning katta – kichikligini, uzun – qisqaligini, past – balandligi, yoki keng - torligi kabi xususiyatlarni anglatishi ta’kidlangan. Bu izohlar shu o‘rtada keltirilgan sifat leksemalarni kelgusida bir necha LSG larga ajratish lozim ekanligini ko‘rsatadi.

“ O‘zbek tili” darsligida sifatlarning boshqa LSG lari qatori predmetning hajmini, shaklini ifodalovchilar ham tilga olinadi hamda sidiq‘asiga keltirilgan misollarga qaraganda bu LSG ga *katta, yumaloq, yapaloq* kabi sifat leksemalar kiradi. Demak, bundan ko‘rinadiki, keltirilgan misollar shu LSG ga mansub. Sifat leksemalarning ayrim ko‘rinishlarini ifoda etadi. I. Hamdamova “masofa anglatuvchi sifatlar”

⁶¹ Tursunov U., Muxtorov J. Sifat // Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, qayta ishlangan, to'ldirilgan uchinchi nashri. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. 280 – 287 – betlar.

deb *uzoq*, *yaqin*, *yiroq* kabi sifat leksemalarni keltiradi, *baland*, *past*, *qisqa*, *keng*, *kalta* kabi sifat leksemalarni esa olima alohida guruhga – “hajm anglatuvchi sifatlar” ga kiritadi.⁶² I. Hamdamova o‘z nomzodlik dissertatsiyasida sifatlarning leksik – semantik jihatdan so‘nggi tasnifini keltirgan edi. Bu tasnifda sifat leksemalar 7 LSG ga ajratilib, shulardan 4 – guruh “narsa - predmetga xos belgi – xususiyatni bildiruvchi sifatlar” deb nomlangan. Bu guruh ham o‘z navbatida bir necha kichik guruhlarga ajratilib, *baland*, *uzun*, *kalta* kabi sifat leksemalar “o‘lchov sifatlari” ga kiritilgan.

Bundan ko‘rinadiki, shu kungacha e‘lon qilingan darslik va qo‘llanmalarda, ayrim monografiya va nomzodlik ishlarida sifatlarning ma‘lum bir LSG I “masofa anglatuvchi”, “makon va zamon anglatuvchi”, shuningdek, “hajm anglatuvchi”, “hajm, shakl, o‘lchov anglatuvchi” kabi turli xil nomlar bilan yuritilib kelingan. Bunday xilma – xillikni normal holat deb bo‘lmaydi.

Bunday sifat leksemalar haqida Sh. Rahmatullayev va I. Abdurahmonovlar ham maqola e‘lon qilganalar. Bunda ular turli adabiyotlarda “makon va zamon”, “o‘rin”, “hajm”, “shakl”, “masofa” bildiruvchi deb ko‘rsatilgan sifat leksemalarni ko‘lam sifatlari deb nomlaganlar. Ko‘lam sifatlari esa ishda quyidagi uch qismga ajratilgan: a) oraliq (masofa) bildiruvchi – *bo‘y*, *yon*, *en*; b) shakl bildiruvchi – *yo‘g‘on*, *ingichka*; d) hajm bildiruvchi - *yapaloq*, *yassi* kabilar.

I. Abdurahmonov keyinchalik ko‘lam sifatlari, asosan, *baland*, *past* leksemalarida polisemiya va antonimiya hodisalarini o‘rganishga bag‘ishlangan nomzodlik ishini ham himoya qildi.

⁶² Hamdamova I. Sifatlarning leksik – semantik gruppalari // O‘zbek tili va adabiyoti, 1964, 4 – son. – 28 – 29 – betlar.

G. Sodiqova o'z ishida ko'lam me'yorini bildiruvchi sifat sememalarini izohlashning yana boshqacha bir yo'lini taklif etadi.⁶³ Olimaning fikricha, "*baland* leksemasi sememasining aniqlanmagan yana bir semasi bo'lib, bu uning o'z antonimidan farqlab beruvchi farqlovchi semasidir. Uning farqlovchi semasi ortiqlikdir. Ya'ni, *baland* leksemasining sememasi "bo'y ko'lami me'yoridan ortiq" deb izohlanishi kerak. Uning so'nggi farqlovchi "ortiq" semasi esa izohni formal jihatdan shakllantiruvchi ham bo'lib qoladi, ya'ni izohda sifatlikni ta'minlaydi".⁶⁴ Ana shu asosda ishda *past, naynov, novcha, pachaqa, pakana, uzun, kalta, qisqa, o'siq, keng, tor* kabi ko'lam me'yorini turli darajada ifodalovchi sifat leksemalarning semantik strukturasini aniqlashga harakat qilingan.

Biz ham ana shu usuldan foydalanib, ko'lam me'yorini ifodalovchi ayrim sifat leksemalarning semantik strukturasini va uslubiy xususiyatlarini aniqlashga harakat qilamiz. Ko'lam me'yorini bildiruvchi sifat leksemalar narsa va predmetlarning hajmini ifodalash maqsadida qo'llanadi: *Marten sexi... katta qozonda / Shu'la sohib eriydi temir* (Muhammad Ali).

Keltirilgan misolda tasvirlanayotgan predmetning hajmi, ko'lami *katta* sifat leksemasi yordamida ifodalangan. Poetik nutq uchun xos bo'lgan xususiyatlardan biri shundaki, ifodalanayotgan fikr bir leksema yordamida emas, balki uning qator ma'nodoshlari, variantlari vositasida ham yuzaga chiqadi. Masalan, *katta* sifat leksemasi *keng* tushunchaga ega bo'lib, "hajmi, o'lchami nisbatan ortiq; ulkan" ma'nolarini bildiradi. Bu sifat leksemalarning tilimizda *ulug', buyuk, zo'r, azim, azamat, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigant* kabi ma'nodoshlari mavjud. Poetik nutqda "hajmi, o'lchami nisbatan ortiq" semasini

⁶³ Sodiqova G. Ko'lam me'yorini bildiruvchi sifat sememalarini izohlash // Tilshunoslik masalalari, Toshkent: 1978, 187 – 195 – betlar.

⁶⁴ Ko'rsatilgan asar. 192 – bet.

ifoda etish uchun *katta* sifat leksemasining boshqa sifat leksemasining boshqa yuqorida qayd etilgan ma'nodoshlari mahsuldor uslubiy vosita sifatida ishtirok etadi: *Chaqmoq chaqar, ko'k qarsillaydi / Ko'chgan kabi tog'dan azim tosh* (Shukrullo).

Bu misolda “ o'lchami nisbatan ortiq” semasi azim sifat leksemasi vositasida ifodalangan bo'lib, u juda kam qo'llanishi va chegarali ekanligi bilan xarakterlanadi. Quyidagi misolda “hajmning nisbatan ortiq” semasi *ulkan* leksemasi yordamida ifodalangan: *Butun olam go'yo ulkan doshqozon / Qaydadir – ko'rinmas uning naryog'i.* (Abdulla Oripov).

Ko'rinadiki, predmet, voqea – hodisalardagi “o'lchami, hajmi nisbatan ortiq” semasini ifodalashga xizmat qiluvchi sifat leksemalar nisbatan ko'p. To'plangan misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, poetik nutqda predmetning o'lchami, hajmi nisbatan ortiqligini ifodalashda belgi darajasi kuchli bo'lgan *azim, buyuk, yirik, zo'r, azamat, ulug', ulkan* kabi sifat leksemalar keng qo'llanadi. Bu sifat leksemalar muayyan predmetlarga nisbatan qo'llanish bilan birga mavhum tushunchali otlarga nisbatan ham qo'llana oladi. Masalan, *Lahjalar birlashdi – til bo'ldi yirik, / Oftobday bo'yladi “Qutadg'u bilig”....* (Azim Suyun).

Keltirilgan misolda *yirik* leksemasi aloqa vositasi bo'lgan til taraqqiyotidagi ichki o'zgarishlar jarayonini obrazli ifodalash vositasiga aylangan. Yoki *katta* sifat leksemasi mavhum tushunchali otlar bilan yonma – yon kelib, xilma – xil semalarni ifodalashi kuzatiladi:

a) katta sifat leksemasi marosim bildiruvchi so'zlar bilan yonma – yon keladi: *Bukun tayyorlik ko'rar / Ukam katta bayramga* (Erkin Vohidov);

b) *oila* soʻzi bilan yonma – yon kelib kishilar sonining mavhum koʻpligini ifodalaydi: *Katta oilada voyaga yetdim, / Past-u balandni ham koʻrdim rosmam* (Muhammad Ali).

d) bajariladigan ish – harakatning koʻpligini bildirish uchun xizmat qiladi: *Oʻz zimmamga katta ish oldim: / Ehtimolki, tamom qilmasdan - / Umrin tugar. Ammo boʻlmaydi...* (Usmon Nosir).

e) inson xarakterida turli xil yetishmovchiliklar mavjudligini ifodalash maqsadida ham qoʻllaniladi: *Bu eng katta kamchilik – doʻstim, / Meni kechir, sendan soʻrayman!* (Usmon Nosir).

“Oʻlchami, hajmi nisbatan katta boʻlmagan” semali sifat leksemalar ham poetic nutqda keng qoʻllanadi. Bunday LSG ga mansub *kichik* sifat leksemasi obyektga nisbatan qoʻllanib, “koʻlami, shuhrati u qadar katta boʻlmagan”⁶⁵ semasini ham qoʻshimcha tarzda ifodalashga xizmat qiladi: *Birdaniga toʻxtadi poezd / Kichik yoʻlga qayrilar chogʻda* (Shukrullo).

Poetik matnlarda “hajmi, oʻlchami nisbatan katta boʻlmagan” semasi *mitti* sifat leksemasi yordamida ham ifodalanadi: *Koʻkdan unga koʻrinar faqat / Mitti yulduz va parcha osmon.* (Abdulla Oripov).

Shuni taʼkidlash lozimki, *mitti* sifat leksemasi kichiklik maʼnosini oʻta kuchaytirib, ekspressiv boʻyoqdor qilib koʻrsatadi hamda “juda kichkina, jimit” semalarini ham ifodalaydi.

Jajji sifat leksemasi semantik jihatdan kichiklikni bildirsada, shu maʼnoni ifodalovchi *mitti*, *kichik* kabi sifat leksemalaridan oʻziga xos maʼno nozikliklariga koʻra farq qiladi. Bu leksema kichiklikdan tashqari yana “kelishgan, bejirim” semalarini ham ifodalaydi. *Jajji* leksemasini qoʻllashda muallifning oʻzi tasvirlayotgan kishiga (koʻproq

⁶⁵ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. II tomlik, 1- tom, M.: 1981. 389 –bet.

bolaga) nisbatan ijobiy ekspressiv munosabati ham aniq sezilib turadi: *Jajji o'g'ilchasin yetaklab olib / Ota shoshar edi qaygadir tongda* (Abdulla Oripov).

Ko'lam me'yorini bildiruvchi sifat leksemalar orasida predmetning enini bildirishga xizmat qiluvchi *keng, tor* sifat leksemalari ma'lum bir oraliq masofani ifodalash uchun qo'llanadi: *Atrofigda kuylab, allalab / Keng bug'doyzor, novda nihollar / Beixtiyor erkingni butun / Egallaru qalbni qilar rom* (Shukrullo); *Brigadirning keng shiyponida / Belanchakni tebratur asta...* (Muhammad Ali).

Keltirilgan har ikki misolda *keng* sifat leksemasi tasvirlanayotgan joy – obyektning masofasini ifodalashga xizmat qilmoqda. Poetik nutqda *keng, tor* sifat leksemalari inson tasvirini, uning portretini berishda ham qo'llanadi: *Keng qaboqli, tor miyiqli / Guli gulnor, mohi nur – Ham tamizli, ham tiyiqli / She'rimizga rang erur!* (Muhammad Ali).

Bu misolda *keng, tor* leksemalari vositasida tasvirlanayotgan kishining yuz qiyofasi, portreti chizib berilgan. Tilimizda *tor* leksemasining peshonaga nisbatan qo'llanilib, ko'chma ma'no kasb etib, ibora sifatida qo'llanishi ham ma'lum. Poetik matnlarda sho'rlik, baxtsiz semalarini ifodalashda ana shu frazemadan foydalanish hollari uchraydi: *Alang – jalang qaradi-yu, dunyo bexabar / Peshonasi tor dehqon* (Muhammad Ali).

Tor leksemasi tabiatdagi mavjud , konkret predmetlarga nisbatan qo'llanilganda predmet enining uncha katta bo'lmaganligini ifodalaydi. Masalana: *Dunyoda ko'rgani shu tor hovuzcha, Va mudroq tollarning achchiq xazoni* (Abdulla Oripov).

Keltirilgan misolda *tor* leksemasi chegarasi, ko'lami uncha katta bo'lmagan joy – hovuzning belgisini ifodalashga xizmat qiladi.

Poetik nutqda atrof - borliq haqida fikr yuritilganda ularning cheksizligi, bepoyonligi *keng* leksemasi yordamida ifodalanadi. Shuning uchun *olam, dunyo, jahon* soʻzlari aksariyat hollarda *keng* leksemasi bilan yonma – yon keladi: *Keng jahon sigʻgan koʻzingni, / Bosdi tong mujgon yuki* (Erkin Vohidov); *Inson jismin berib menga bul sifat / Keng olamni qilding koʻkragimga jo* (Erkin Vohidov).

Shuni taʼkidlash lozimki, *keng* leksemasi inson qalbiga nisbatan qoʻllanganda maʼnoni kuchaytirish maqsadida oʻxshatish hosil qiluvchi leksik va grammatik vositalardan ham foydalaniladi: *Salom senga, nuqrasoch dalam / Koʻnglimday keng bagʻring och, dalam!* (Erkin Vohidov); *Qalb quvonch-la olam kabi keng / Okeanlar sigʻar bemalol* (Shukrullo); *Ona bagʻri kabi keng, ochiq bugun / Moskva, Kievning oltin qopqasi* (Erkin Vohidov).

Tilimizda *baland, past* sifat leksemalari soʻzlovchi va uning nutqi qaratilgan shaxs, narsa va predmet orasidagi masofani ifodalash uchun xizmat qiladi: *Oʻsha baland osmon tubidan / Yoshligimni tabrik aylardim* (Usmon Nosir).

Shuni inobatga olish lozimki, *baland, past* leksemalari narsa va predmetlarning gorizontol holatini emas, balki vertikal holati bilan bogʻliq masofani ifodalaydi: *Jingalak sochlari hamon sarfarozi / U oʻzi yaratgan haykaldan baland!* (Ramz Bobojon); *Qoʻy, jonim, koʻzlaring toʻlmasin yoshga / Tongda oyogʻing qoʻy baland bir toshga* (Abdulla Oripov); *Qoʻlda goʻdak, koʻzda qonli yosh / Orzu chiqdi baland qirgʻoqqa* (Erkin Vohidov).

Baʼzan *baland* leksemasi oʻz antonimi boʻlgan *past* leksemasi bilan juft holda kelib, maʼnoni kuchaytirishga xizmat qiladi: *Uning ham past – baland, oʻr-u qiri bor / Uni ham qarshilar goh tikan, goh gul* (Erkin Vohidov).

Past leksemasi “yuqori tomon o‘lchami, qaddi, bo‘yi uncha baland bo‘lmagan, balandligi bo‘yi nisbatan qisqa” sememalarini ifodalashga xizmat qiladi: *El ichida qo‘rqmay – netmay pastak tomingga / Poxol bosgan ekansan* (Muhammad Ali).

Keltirilgan misolda qo‘llangan forsha – tojikcha so‘zlashuv tiliga xoslangan *pastak* leksemasi belgi darajasini kuchaytirish uchun vosita bo‘lgan.

Ko‘lam me‘yorini bildiruvchi sifat leksemalar orasida *chuqur*, *sayoz* so‘zlari predmetning pastlikka tomon bo‘yini, chuqurligini ifodalashga xizmat qiladi. Bunda *sayoz* leksemasi chuqurlikning kuchsiz darajasini, “tagi yuza joylashgan” semasini ifodalasa, *chuqur* leksemasi esa bunday belgining kuchli darajasini, “sathdan ancha past” semasini bildiradi: *Bo‘hton qaziyotir / Unga chuqur go‘r!* (Usmon Nosir); *Shabboda entikib, chuqur tin oldi / Ko‘lanka tashlandi yer etagiga* (Ramz Bobojon).

Dastlabki misolda *chuqur* leksemasi konkret mavjud bo‘lgan predmetning belgisini ko‘rsatishga xizmat qilgan bo‘lsa, keyingi misolda bu leksema insonning xatti – harakatini ifodalovchi mavhum ot bilan yonma – yon kelib, uning belgisini, “muhim, jiddiy” semasini ifodalashga bo‘ysundirilgan.

Poetik nutqda “tagiga yetib bo‘lmaydigan, juda chuqur” semasini kuchli tarzda ifodalash uchun *tubsiz* leksemasi ham qo‘llanadi: *Sonsiz yulduz, tubsiz samo / Bepoyon fazo...* (Erkin Vohidov).

Bu misolda *tubsiz* leksemasi belgi ma’nosining kuchayishini ta’minlashga vosita bo‘lgan. Bu leksema, shuningdek, *dengiz*, *okean*, *jarlik* kabi otlarga nisbatan qo‘llanilganda ham “juda chuqur, tagiga yetib bo‘lmaydigan” semasini ifodalashga xizmat qiladi.

Ko‘lam me‘yorini bildiruvchi sifat leksemalar doirasiga kiruvchi *uzoq*, *yaqin* leksemalari uzunlik belgisini ifodalaydi. Bu leksemalar poetik nutqda aniq yoki mavhum otlarning belgisi sifatida qo‘llanadi.

Shuningdek, poetik nutqda uzoqlik ma‘nosi *olis*, *yiroq* leksemalari yordamida ham ifodalanadi. Bu leksemalarning o‘ziga xos jihatlari ham mavjud: a) uzoqda joylashgan narsa va predmetlar orasidagi masofani ifodalaydi: *Huv olis tog‘larning / Yelplingan shamoli...* (Muhammad Ali); *Balki dalalarga cho‘kkan bu tuman - / Yiroq yulduzlarning sirli sharpasi* (Abdulla Oripov); *Za‘faron zulfingga taqib ketayin / Olis cho‘llarimning binafshasini* (Abdulla Oripov).

b) ma‘lum bir davr, vaqtga nisbatan uzoqlik belgisini ifodalash uchun qo‘llanadi: *Sog‘inch hissi yurakda-yu, yodimda bir – bir / Olis o‘tmish, bugun ertang chizmakda tasvir* (Muhammad Ali); *Ovni shunday ardoqlaydi, sevadi otam! / Qalbi titrar, esga tushsa, o‘sha olis dam* (Muhammad Ali); *Yulduz sanab, yildan uzun kechalarda / Hisobiga sira azal yetolmagan* (Usmon Nosir).

Poetik matnlarda ba‘zan takrordan qochish, she‘riy nutqning emotsional – ekspressivligini ta‘minlash maqsadida uzunlik bildiruvchi bir necha leksemalardan foydalaniladi: *Hijron kechalari g‘oyatda uzun, Ayriliq yo‘llari olis nihoyat* (Erkin Vohidov).

Ba‘zan uzunlik bildiruvchi sifat leksemalarning takrorlanib qo‘llanishi belgi ma‘nosini kuchaytirish uchun xizmat qiladi: *Olis, olis qo‘l yetmas joylar! / Bolaligim, oh bolaligim / Har bir dami benolaligim / Olis, olis qo‘l yetmas joylar!* (Muhammad Ali). *Uzoq, uzoq qarshimda tinma / Yuraging qon qilib xo‘rsinma...* (Muhammad Ali).

Ko‘lam me‘yorini ifodalovchi *uzoq* leksemasi ayrim frazemalar tarkibida ham uchraydi: *Osmon uzoq, yer qattiq, zarang / Doim*

shundoq, so'ng debon attang / Yopishgusi cho'pga holi tang !
(Muhammad Ali).

Uzun, kalta leksemalari poetik nutqda o'rni bilan muayyan predmet va narsalarga nisbatan, shuningdek, mavhum tushunchalarga nisbatan ham qo'llaniladi: *Balki uzun sochini silab / Azongacha ertak aytardi* (Usmon Nosir); *Uzun – uzun xayollar surgan / Norbo'ta-ku, ne bo'ldi o'zi?* (Usmon Nosir); *Nega og'ir nafas olar u / Kalta – kalta, uzuq so'zida?* (Usmon Nosir).

Qisqa leksemasida ham belgining kuchsiz darajasi ifodalanadi: *Endi naf yo'q, vaqt o'tdi, ketdi / Tamom bo'ldi bu qisqa visol* (Erkin Vohidov).

Ko'rinadiki, sinonimiyaning sifat so'z turkumi doirasida keng taraqqiy qilganligi fikrni ifodalashda birmuncha qulayliklar tug'diradi.

Xullas, ko'lam me'yorini ifodalovchi sifat leksemalar poetik nutqda predmetlarning hajmi, o'lchovi, masofani ifodalashda eng mahsuldor uslubiy vositalardan sanaladi.

Bob bo'yicha xulosa

Mazkur bob bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O'zbek tilida holat bildiruvchi sifat leksemalarni 9 ta ichki LSG larga bo'lib o'rganish mumkin. 1) xursandlik holatini ifodalovchi sifat leksemalar: *xursand*, *shod*, *xurram*, *gulgun*, *xushnud*, *quvnoq*, *xushchaqchaq* kabi; 2) xafalik holatini bildiruvchi sifat leksemalar: *ma'yus*, *g'ash*, *xunibiyron*, *giryon*, *g'amnok*, *diltang*, *parishon* kabi; 3) g'azabli holatni ifodalovchi sifat leksemalar: *g'azabnok*, *kinli*, *g'azabli*, *darg'azab* kabi; 4) ijobiylik yoki salbiylik semasi to'g'ridan – to'g'ri ifodalanmaydigan holat bildiruvchi sifat leksemalar: *sog'*, *sergak*, *xushyor*, *lol*, *mudroq*, *loqayd* kabi; 5) kishining hayotiy ahvoli, holatini ifodalovchi sifat leksemalar: *kambag'al*, *faqir*, *qashshoq*, *bechora*, *gado*, *bechorahol*, *yo'qsil*, *misikin*, *yetim*, *mushfiq*, *musofir*, *boy*, *badavlat*, *davlatmand*, *zangin* kabi; 6) predmetning harorat belgisi holatini bildiruvchi sifat leksemalar: *Issiq*, *sovuq*, *salqin*, *iliq*, *muzdek*, *namxush*, *otashnok* kabi; 7) tozalik - ifloslik holatlarini ifodalovchi sifat leksemalar: *toza*, *iflos*, *irkit*, *loyqa*, *musaffo*, *beg'ubor*, *shaffof*, *pok*, *pokiza* kabi; 8) predmetning yangilik – eskilik holatlarini ifodalovchi sifat leksemalar: *yangi*, *eski*, *ko'hna*, *churuk*, *juldur*, *uvada*, *eski - tuski*, *ohorli*, *toza* kabi; 9) tinch va notinchlik holatlarini ifodalovchi sifat leksemalar: *tinch*, *notinch*, *osoyishta*, *jim*, *bezovta*, *betoqat*, *betinch*, *halak*, *besaranjom*, *alg'ov – dalg'ov*, *to's – to'polon*, *sokin*, *sokit*, *osuda*, *bezovta*, *xotirjam*, *tek* kabi. Bu kabi sifat leksemalar o'zbek tilida juda ko'p uslubiy ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi.

2. O'zbek tilida ko'lam me'yorni ifodalovchi sifat leksemalar qatoriga *keng*, *tor*, *qalin*, *yupqa*, *chuqur*, *sayoz*, *uzoq*, *yaqin* kabi sifat so'zlarni kiritish mumkin. Bu leksemalar badiiy matn poetikasiga

uslubiy ma'nolarni yuklashda eng sermahsul sifat so'zlardan hisoblanadi. Jumladan, bu so'zlar mavhum otlar bilan qo'shib kelganda ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Umumiy xulosa

Ushbu bitiruv malakaviy ishimiz soʻngida boblar boʻyicha fikrlarimizni umumlashtirib quyidagi jamlovchi xulosani havola qilishimiz mumkin:

1. Tilshunosligimiz tarixida sifat soʻz turkumi haqidagi ilk tadqiqotlar juda qadim davrlarga borib taqaladi. Chunonchi, Koshgʻariydan boshlangan bu zanjir halqalari Navoiy davri va undan keyin XX asrning birinchi choragiga kelib, oʻz takomilining yuqori choʻqqisiga koʻtarildi. Bunda Abdurauf Fitratning, keyinchalik rus sharqshunos olimlarining xizmatlari katta boʻldi.

2. Oʻzbek tilshunosligida sifat soʻz turkumiga oid ilk ilmiy tadqiqot 40 –yillarning ikkinchi yarmida vujudga kelgan edi. Z. Maʼrufov 1947 – yilda Sankt – Peterburgda “Oʻzbek tilida sifat darajalari”, 1950 – yilga kelib Gʻ. Abdurahmonov Samarqandda “Hozirgi oʻzbek tilida sifatlarning substantivatsiyasi (otlashishi)”, 1955 – yilda O. Madrahimov “ Hozirgi oʻzbek tilida yangi yasalgan sifatlar” mavzuidagi nomzodlik ishlarini himoya qilgan edi. 1957 – yilda O. Madrahimovning “ Oʻzbek tilida sifat va yangi yasalgan sifatlar masalasiga doir” nomli maqolasi eʼlon qilingan edi.

3. Sifat soʻz turkumi doirasidagi ishlar orasida sifat soʻzlarning semantik – uslubiy xususiyatlarini tadqiq etuvchi ishlar alohida ahamiyat kasb etadi. A. Gʻulomov, R. Qoʻngʻurov kabi olimlar oʻzbek tilida morfologik uslubiyat masalasiga oid ilk dolzarb ishlarni amalga oshirdilar. Bunda olimlarning sifat soʻzlarning uslubiy xususiyatlari borasidagi qarashlari keyinchalik bu mavzuning oʻzbek tilshunoslik ilmida chuqur tomir otib rivojlanishiga turtki boʻldi.

B. Yoʻldoshev, A. Abdurahmonov, S. Karimov, B. Yoriyev, M. Mamatov, K. Yusupov, B. Oʻrinboyev, Z. Pardayev kabi tilshunoslarning aynan shu mavzudagi tadqiqotlari yuqoridagi fikrimizning yaqqol dalilidir.

4. Poetik matnlarda sifat leksemalar har xil soʻzlar bilan birikib, epitet vazifasida keladi. *Moviy ufq, moviy shamol, yam – yashil olam, yashil fazo, moviy xayol, moviy yuksaklik, yashil doʻst, yashil is, yashil libos, moviy qoʻshiq, majruh koʻngil, murgaʻak dil, gulgun chehra, makkor koʻz, shirin xayol, pok tuygʻu* kabi birikmalarda sifatlar muhim tasviriy vosita boʻlib qolmasdan, balki poetik tafakkur elementiga, estetik hodisaga aylanib ketadi, hamda nutqni bezash doirasidan chiqib, his – tuygʻuni, fikrni obrazli ifodalash vositasi darajasiga koʻtariladi.

5. Poetik nutqda rang bildiruvchi sifat leksemalarning uslubiy maqsadlarda qoʻllanilishi maʼlum darajada muallif yashab turgan davrda qaysi tuzumning hukmron boʻlganligi, uning dunyoqarashi, qaysi siyosat tarafdorligi ekanligi bilan ham bogʻliq.

6. Sifatlar tadqiqotchilar tomonidan semantik jihatdan 4 – 9 guruhga ajratib oʻrganilmoqda. Olimlarning bunday tasniflari orasida taniqli oʻzbek olimasi M. Sodiqova tomonidan ishlab chiqilgan tasnif eʼtiborga molik. Bu tasnifga binoan sifatlar semantik jihatdan toʻqqiz guruhga ajratiladi. Har bir guruhga oid sifatlar ham oʻz navbatida ichki leksik – semantik guruhlariga boʻlinadi. Jumladan, holat bildiruvchi sifat leksemalar tabiiy holat belgilarini ifodalovchi LSG, nuqsoniy belgilarni ifodalovchi LSG, ruhiy holat ifodalovchi LSG, kishining hayotiy holatini ifodalovchi LSG lari singari oʻnga yaqin kichik – kichik guruhlariga boʻlinadi. Rang bildiruvchi sifat leksemalarni *oq, qora, koʻk, qizil, sariq, zangori,*

yashil, bo‘z, malla, moviy, pushti, pistoqi, qirmizi, qo‘ng‘ir kabi asosiy (axromatik) rang bildiruvchi leksemalardan tashqari *saman, jiylon, to‘riq, chavkar, chipor, targ‘il* singari hayvon tuslarini ifodalovchi LSG lar qatoriga ajratish mumkin.

7. O‘zbek tilida yana sifat leksemalar orasida maza – ta‘m ma‘nosini ifodalovchi sifat leksemalar ham mavjudki, ular badiiy matnda keng uslubiy imkoniyatlarini namoyish qiladi. Ayniqsa, *shirin, achchiq, sho‘r, talx* kabi maza – ta‘m sifat leksemalari badiiy matnda eng ko‘p qo‘llaniluvchi uslubiy sifat leksemalari hisoblanadi.

8. O‘zbek tilida ko‘lam me‘yorni ifodalovchi sifat leksemalar qatoriga *keng, tor, qalin, yupqa, chuqur, sayoz, uzoq, yaqin* kabi sifat so‘zlarni kiritish mumkin. Bu leksemalar badiiy matn poetikasiga uslubiy ma‘nolarni yuklashda eng sarmahsul sifat so‘zlardan hisoblanadi. Jumladan, bu so‘zlar mavhum otlar bilan qo‘shilib kelganda ma‘noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Umuman olganda, sifat leksemalardan nutq jarayonida, jumladan badiiy matnlarda o‘rinli va oqilona foydalanish uslubiy ta‘sirchanlikni oshirish, ma‘noni kuchaytirishning muhim vositalaridan biri sanaladi. Davrlar o‘tishi bilan til vositalarining nutqda qo‘llanish imkoniyatlari kengayib borganidek, sifat leksemalar ham yangi okkazional semalari bilan nutqiy ta‘sirchanlik doirasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10 – t. - Toshkent: O'zbekiston, 2002.
3. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli. – Toshkent: Fan, 1987.
4. Abdurahmonov A. *Qizil, oq va qora* so'zlarining leksik – semantik xususiyatlari // O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari (ilmiy maqolalar to'plami), SamDU asarlari, yangi seriya, 346 – chiqishi, Samarqand: 1978.
5. Abdurahmonov X., Rafiyev A., Shodmonqulova D. O'zbek tilining amaliy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
6. Abdurahmonov I. *Baland* leksemasi leksik ma'nolarining nutqda qo'llanuvchanligi // O'zbek tili stilistikasi masalalari, ToshDU asarlari, 427 – chiqishi, Toshkent: 1972.
7. Abdurahmonov G'., Mamajonov S. O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
8. Asqarova M., Abdurahmonov X. O'zbek tili grammatikasining praktikumi. – Toshkent: O'qituvchi, 1981.
9. . Aytmatov Chingiz, Shoxonov Muxtor. Cho'qqida qolgan ovchining oh-u zori. Toshkent – 2009.
10. Bafoiyev B. Navoiy asarlari leksikasi. – Toshkent: Fan, 1983.
11. Bafoiyev B. Navoiy nazmi tilida *qizil* sinonimlari, sintagmalari va ulardagi ma'nodoshlik // O'zbek tili va adabiyoti, 1989, 2-son.
12. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985.

13. Bobojonov Sh. “Eski” leksemasining semantik tavsifi // O‘zbek tili va adabiyoti, 2003, 1 – son.
14. Doniyorov X., Yo‘ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. – Toshkent: Fan, 1988.
15. Yoriyev B. Sifatlarning stilistik xususiyatlari (M. Shayxzoda she’riyati misolida) // O‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari (ilmiy maqolalar to‘plami), Samarqand: SamDU nashri, 1980.
16. Ibrohim Haqqul. Qora rang – muborak rang // Ibrohim Haqqul. Zanjirband sher qoshida (Navoiy saboqlari). Toshkent: Yulduzcha, 1989.
17. Ibrohim Haqqul. Yana qora rang talqini haqida // O‘zbek tili va adabiyoti, 2001, 3- son.
18. Iskandarova Sh. Leksikani mazmuniy maydon asosida o‘rganish muammolari. – Toshkent: Fan, 1998.
19. Iskandarova Sh. Sifat // Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh., Nabiyeva D. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (morfologiya). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
20. Yo‘ldoshev B. Said Ahmad asarlari tilida rang bildiruvchi sifatlar va ularning stilistik funksiyalari haqida // O‘zbek tili grammatikasi, dialektologiyasi va leksikologiyasi masalalari (ilmiy masalalar to‘plami), yangi seriya, 319 – chiqishi, Samarqand: SamDU nashri, 1977.
21. Yo‘ldoshev B. Badiiy asar tili va uslubini o‘rganish // O‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari (ilmiy maqolalar to‘plami), Samarqand: SamDU nashri, 1980.
22. Karimov S. O‘zbek tilining badiiy uslubi. – Samarqand: Zarafshon, 1992.

23. Madrahimov O. O'zbek tilida sifat va yangi yasalgan sifatlar masalasiga doir // O'zFA axboroti, ijtimoiy fanlar seriyasi, Toshkent: 1957, 1- son.
24. Madrahimov I. O'zbek tili leksemalarining tarkibiga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 2002, 4 – son.
25. Mamarajabova Z. Belgi bildiruvchi so'zlarning stilistik xususiyatlari haqida // Til va adabiyot ta'limi, 2003, 3 – son.
26. Mamarajabova Z. Ko'rinish sifatlarining grammatik xususiyatlari // Til va adabiyot ta'limi, 2002, 2- son.
27. Mamarajabova Z. Shakl sifatlarining tuzilishi va tarkibi // O'zbek tili va adabiyoti, 2003, 1- son.
28. Mamatov A. E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. – DDA, Toshkent: 2000.
29. Mamatov M. Sh. Sifat va otlarning ayrim stilistik xususiyatlari haqida // O'zbek tili stilistikasidan kuzatishlar (ilmiy maqolalar to'plami), Samarqand: 1983.
30. Ma'rufov Z. So'z sostavi. Ot va sifat. – Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1956.
31. Ma'rufov Z. Sifat // Hozirgi zamon o'zbek tili (leksikologiya, fonetika, grafika va orfografiya, morfologiya). Toshkent: O'zFa nashriyoti, 1957.
32. Mirzayeva N. A. Chexov va A. Qahhor poetikasida rang ramzlari // O'zbek tili va adabiyoti, 2002, 4 – son.
33. Mirtojiyev M. O'zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan, 1975.
34. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1993.
35. Nurmonov A., Sarimsoqov B. Til sistemasida so'zning o'rni va so'zlarni turkumlarga ajratish muammolari // O'zbek tili va adabiyoti, 1999, 5 – son.

36. Rahmatullayev Sh., Abdurahmonov I. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'lam sifatleri // O'zbek tili va adabiyoti, 1972, 3 – son.
37. Sodiqova G. Sezgi ifodalovchi sifat sememalari // O'zbek tili va adabiyoti, 1977, 3- son.
38. Tojiyev Y. O'zbek tilida affiksali sinonimiya. Toshkent: ToshDU nashri, 1981.
39. Tursunov U., Muxtorov J. Sifat // Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
40. Qurbonova M. Fitrat – tilshunos. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 1996.
41. Qo'ng'urov R. Sifat stilistikasi // Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.
42. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2002.
43. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1974.